

NABIJON QODIROV

G'IJJAK IJROCHILIGIDA  
MAHALLIY USLUBLAR

*(Yunusqori Yusupov)*

M<sup>43</sup>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI


**NABIJON QODIROV**

# **G'IJJAK IJROCHILIGIDA MAHALLIY USLUBLAR**

*(Yunusqori Yusupov)*

*Oliy ta'lim muassasalari uchun  
o'quv qo'llanma*

Ta'lim yo'nalishlari: 5150700 – An'anaviy cholg'u ijrochiligi  
5150600 – An'anaviy xonandalik



«Musiqa» nashriyoti  
Toshkent  
2016

UO'K 785.121(075)

KBK 85.315.3ya73

Q 53

*Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan  
(2016-yil, 6-aprel, № 137)*

**Mas'ul muharrir:**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori v.b.  
O'zbekiston xalq hofizi – M.TOJIBOYEV

**Taqrizchilar:**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
«An'anaviy ijrochilik» kafedrasida dotsenti – S.AZIZBOYEV

O'zbekiston davlat San'at va madaniyat instituti katta o'qituvchisi,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist – A.DADAYEV

O'zbekiston davlat konservatoriyasi «An'anaviy ijrochilik» kafedrasida  
katta o'qituvchisi – O'.QODIROV

**Qodirov, Nabijon.**

**G'ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar** (Yunusqori Yusupov) / Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: «Musiqqa» nashriyoti, 2016. – 96 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma milliy musiqa ijrochiligimizning zabardast vakili – Yunus qori Yusupovning ijro uslubini yoritishga bag'ishlangan. Ushbu ardoqli san'atkorning hayotiy va ijodiy yo'li izchillik bilan ham ilmiy, ham badiiy tomondan yoritilib, uning uslubi haqida atroflicha ma'lumotlar taqdim etilgan. Qo'llanmaning yozilish jihatlari, tanlangan mavzuning dolzarbligi va eng asosiysi o'quvchiga ravon va tushunarli tilda qimmatli bilimlar bera olishi – muallif mehnatining samarasidir. Mazkur qo'llanma yetuk san'atkorlar ijodi, ularning ijro uslublarini ilmiy tadqiq etishga qaratilgan ilk qadamlardan biri bo'lib, keyingi rejalarda boshqa san'atkorlar ijodiga bag'ishlangan shu uslubdagi o'quv qo'llanmalar yaratish ko'zda tutilmoqda.

UO'K 785.121(075)

KBK 85.315.3ya73

ISBN 978-9943-307-99-5

© N.Qodirov, 2016

© «Musiqqa» nashriyoti, 2016



## MUALLIFDAN

Musiqa merosimizning milliy ijrochilik yo'nalishi o'tmishda yashab ijod etgan ko'plab atoqli sozanda-yu xonanda va bastakorlarning badiiy tajribasini, xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan san'at turlaridan biri bo'lib, madaniy merosimizning salmoqli qismini tashkil etadi. O'tmish merosini puxta o'rganib, uni zamonaviy tarzda hayotga tadbiiq etish ijodiyotning asosiy mezonlaridan hisoblanadi. Xususan, prezidentimiz Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida barcha sohalarga nisbatan o'tmish va kelajak borasidagi fikrlarini bayon etar ekan, «O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi bo'lmaydi»<sup>1</sup>, deya ta'kidlaydi.<sup>1</sup> Darhaqiqat, insonning ma'naviy tarbiyasida, uning kamolotga yetishida ajdodlar merosining o'rnini beqiyos. Ularni chuqur o'zlashtirish esa kelgusi avlodning aql-zakovati, iymon-e'tiqodi hamda ilm darajasining yuksalishida mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Chunki, hayotning har bir sohasi, ijtimoiy va madaniy aloqalar, insonlarning o'zaro munosabat va muomalasi, ijodiy faoliyati, boringki barcha jabhalarda o'tmish ajdodlarning ulkan tajribasi, qoldirgan qimmatli va foydali merosi, teran mushohadaga to'la ko'rsatma va yo'l-yo'riqlari mavjuddir.

Ma'lumki, millatimizning boy musiqa merosini o'rganish va uni keng omma ichida targ'ib etish ishlarini san'atimizning fidoiylari, jonkuyar tashabbuskorlari va mohir ijrochilar amalga oshirib kelganlar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yosh avlodni komil inson darajasiga chiqishida juda muhim ahamiyat kasb etgan turli san'at sohalarining ijodiy salohiyatga ega bo'lgan kadrlarini yetishtirish ham bugungi kunimiz uchun juda zarurdir. Bu haqida prezidentimiz o'z fikrlarini «Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi bo'lsak, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak»<sup>2</sup>, deya qayd etadilar. Dunyo xalqlari tarixidan shu narsa ma'lumki, qaysidir millat yoki muayyan bir davlatni bilsak, ko'p hollarda ularni biror bir shaxs orqali taniganmiz yoki bilganmiz. Bu kabi insonlarning avvalida «buyuk yozuvchilar, buyuk shoirlar va buyuk ijodkorlar» turadi. Shuning uchun ham tajribaga tayangan holda yurtboshimiz «... avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak», deya ta'kidlamoqdalar.

Xususan, yurtimizning musiqa san'atini ham dunyoga tarannum etishda barcha sohalar singari, buyuk ijodkorlar, yuksak saviyali kadrlar juda zarur. Albatta, ushbu mashaqqatli ish o'z-o'zidan bo'lib qolmaydi. Ushbu jarayon izchil va aql bilan o'ylangan muayyan rejalar, o'zini oqlagan tarixiy tajribalar va ayniqsa zamonaviy ruh bilan sug'orilgan yangi pedogogik texnologiyalar asosida olib borilmog'i darkor.

Shuningdek, yosh avlodni ushbu ruhda tarbiyalash yo'lida ular uchun namuna bo'la oladigan yetuk ustozlar, allomalar va sohaning bilimdonlari, ularning ilmiy va amaliy faoliyatlariga ham alohida urg'u berish zarur. Yosh avlod ulardan o'rnak olishi, ularning qoldirgan ilmiy merosidan bahramand bo'lishlari juda ham

<sup>1</sup> Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008, 4-bet.

<sup>2</sup> Shu manba, 139-140 betlar.



foydalidir. Xususan, milliy musiqa sohamizda qator ustoz sozanda va xonandalarimiz yetishib chiqqanlar. Ularning hayoti va faoliyatini o'rganish va yosh avlodga taqdim etish – ularga milliy g'oyaning singdirilish yo'lidagi munosib bir qadamdir. Zero, milliy g'oya hozirgi davrimiz uchun zarur bo'lgan eng birlamchi ehtiyojlardan biridir. Chunki, hozirda butun dunyoni tashvishga solayotgan va «omnaviy madaniyat» niqobi ostida harakatlanayotgan salbiy kuchlarga ham yuqorida ta'kidlangan ishlarning amalga oshirilmog'i – eng kuchli himoya vositasi bo'lsa, ajab emas. Ya'ni har bir millat o'z e'tiqodi, o'z tarixi, o'z madaniyati asosida hayot kechirmog'i shartdir. Aks holda ayanchli vaziyatlar yuzaga kelishi aniq.

Biz ham ushbu mulohazalardan kelib chiqib, musiqiy-madaniy sohamizga aloqador milliy qadriyatlar asosini yanada mustahkamlash maqsadida ushbu o'quv qo'llanmaga qo'l urdik. Ushbu boshlanajak ilmiy-pedagogik ishdan avval bir necha jihatlar mushohada qilindi. Xususan, g'ijjak ijrochiligidagi bir qator yetuk ijrochilarimizning namuna sifatidagi faoliyatlari, afsuski ilmiy tarzda yoritilmaganligi, bu o'rinda, faqat sanoqli ilmiy ishlarnigina sanab o'tishimiz mumkinligi<sup>3</sup>, ushbu jihat esa musiqa ilmimizdagi yirik bir muammoli masalaligicha qolib ketayotganligi va boshqa jabhalar, shular jumlasidandir.

Shu va boshqa omillarni hisobga olgan holda, bu borada foydali bir manba ta'lif etishni maqsad qilib, mazkur o'quv qo'llanmani taqdim etmoqdamiz. G'ijjak ijrochiligidagi mahalliy uslublar turkumidan «Yunusqori Yusupov» nomi bilan taqdim etilayotgan ushbu o'quv qo'llanma Oliy ta'lim muassasalarida g'ijjak ixtisosligining milliy ijrochilik yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan va g'ijjak ijrochiligi yo'llari va uslublarini chuqur o'zlashtirishga bel bog'lagan talabalar uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanma vohaviy ijrochilik maktablaridan biri bo'lmish Andijon ijrochilik maktabining yorqin namoyandasi, o'zining qisqagina hayoti davomida o'zbek milliy musiqa san'ati rivojiga barakali hissa qo'shib, tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirgan betakror g'ijjakchi va yoqimli ovoz sohibi Yunusqori Yusupovning g'ijjak ijrochiligi sohasida yaratgan betakror uslubini ilmiy-nazariy va amaliy o'rganishga qaratilgan. Shu bois qo'llanmada «Milliy cholg'u ijrochiligidagi tarixiga bir nazar», «Yu.Yusupovning hayoti va ijodiy yo'li», «Yu.Yusupov ijro uslubining o'ziga xos jihatlari» kabi boblar ishlab chiqildi. Shu o'rinda aytish joizki, kitobxon o'zini o'zi nazorat qilishi, olgan bilimlarini qay darajada o'zlashtirganligini tekshirib borishi uchun har bir bobdan so'ng «bob yuzasidan savollar» bandi ham berildi. Musiqiy-ilmiy joylarda esa tayanch tushuncha va iboralar ta'kidlab ko'rsatib o'tildi (m-n, **uslub; vohaviy uslub** va h.k.).

Shu bilan birga, qo'llanmaga zamonaviy ruh baxsh etgan va ilg'or elektron texnologiyalardan foydalangan holda, uning elektron shakli («PDF»), undagi mavjud musiqiy asarlarning ovozli yozuvlari va ularning notalari (ham «TIFF bitmap», ham «Sibelius» shakllarida) qattiq disklar orqali taqdim etilmoqda.

Shuningdek, o'quv qo'llanmada Yu.Yusupov ijro etgan asarlarni o'zlashtirishni rejalashtirgan talabalar uchun ma'lum darajada uslubiy tavsiyalar, qo'llaniladigan ijro bezaklari haqida ko'rsatmalar berib, uning ijrosidan olingan nota yozuvlari ilova qilindi.

Maqsadimiz, ustozlar an'anasini davom ettiruvchi yosh avlodning a'lo darajada bilim olishi, yuksak ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilishi hamda rang-barang milliy ijro talqinlari bilan xalqimizga ruhiy va ma'naviy ozuqa in'om eta bilishlari uchun malaka poydevorini yaratishdir.

<sup>3</sup> Abduhoshim Ismoilov. Muallif Qahramon Nazirov



Ushbu o'quv qo'llanmaning ta'lif etilishidan ko'zlangan maqsadlardan yana biri yosh avlodning tarbiyasiga ijobiy hissa qo'shishdir. Ha, ushbu kitob muayyan tarbiyaviy ahamiyatga molik. Xususan, Yunus qori Yusupov yetuk ijodkor va mohir ijrochi bo'lish bilan birga, namunali tarbiya sohibi, insonlar qalbidan joy ola biladigan go'zal xulqli inson, mashaqqatli ijodiy faoliyatlarni yengib o'tishda barchaga o'rnak, musiqiy-ijodiy faoliyat sohasida esa nozik didli bastakor va ijrochilikda mohir bo'lgan san'at sohibi edi. Uning ushbu xislatlarini o'quv qo'llanmaning avvalgi boblarida batafsil yoritdikki, zero hozirgi kunimizda bu kabi tarbiyaviy xislatlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, o'zbek musiqasining yirik qatlamini tashkil etib ulgurgan estrada sohasida buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Yu.Yusupov hayotidan keltirilgan lavhalar va ibratli jihatlar musiqa mutaxassislarining o'zaro hurmat va go'zal munosabatlariga ijobiy ta'sir o'tkazadi degan umiddamiz.

Mazkur o'quv qo'llanmaning yuqorida sanab o'tilgan o'ziga xosliklari shuni ko'rsatmoqdaki, bu jihatlar asosida fanlar aro bog'liqlik amalga oshirilgan. Ya'ni tarix, madaniyatshunoslik, estetika, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, g'ijjak ijrochiligi mutaxassisligi, pedagogika, axloqshunoslik va boshqa fanlarga xos bilim va ma'lumotlar izchil tarzda uyg'unlashtirilgan va o'quv qo'llanma uchun tanlangan mavzu shular asosida yoritilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma ilmiy-pedagogik izlanishlarimizdan biri bo'lib, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, Mamadaziz Niyozov kabi mohir ijrochilarimizning ham hayotiy yo'li, ijodiy qiyofasi va individual uslublarini o'rganish va ilmiy tavsif berish keyingi rejalarimizdandir. Shunga qaramay, bu boradagi izlanishlarimiz natijalarini qisqa tarzda bo'lsada, ushbu o'quv qo'llanmaga ilova sifatida taqdim qilmoqdamiz. Xususan, To'xtasin Jalilov, Mamadaziz Niyozov, Muxtorjon Murtazoyev, Nabijon Hasanov, Komiljon Jabborov, Doni Zokirov, Ollonazar Hasanov, G'ulomjon Hojiqulov, Sayfi Jalil, Qahramon Komilov, O'lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Ahmadjon Dadaev, O'tkir Qodirov, Salohiddin Azizboev kabi mohir ijrochilarimizning hayotiy va ijodiy tavsiflari ilovadan o'rin olgan.



## **I BOB.**

### **MILLIY CHOLG'U IJROCHILIGIMIZ TARIXIGA BIR NAZAR**

Milliy musiqa merosimizda shakllanib rivojlangan va tarixga aylangan barcha ijod namunalari hamda ijro uslublari – o'tmishda yashab ijod etgan millatimizning eng ilg'or namoyandalari va ijodkorlarining ijodiy mahsulidir. Musiqa merosimizning sozandalik yo'nalishi xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan san'at turlaridan biri bo'lib, milliy mumtoz merosning salmoqli qismini tashkil etadi.

Inson hayotida musiqiy ohanglar shu qadar muhim ahamiyatga egaki, qadim ajdodlarimiz uni boyitish, rang-barang namunalarini izlab topish jarayonida turli xil musiqiy cholg'u sozlarini kashf etganlar. Sharq xalqlarining xilma-xil cholg'u sozlari jahon xalqlarining cholg'ulari orasida alohida ahamiyat kasb etadi. Torli, damli, kamonli hamda urma zarbli cholg'ulardan iborat bo'lgan bu sozlar qadimdan xalq orasida ixtiro qilinib, zamonlar osha estetik talab va ehtiyojlarga xos ravishda takomillashgan va rivojlanib kelmoqda. Ana shunday rang-barang cholg'u sozlari qatoridan tanbur, dutor, doyra, nay, chang, g'ijjak, rubob, ud, qonun, qo'shnay, surnay, karnay, nog'ora kabi bir qator o'zbek milliy cholg'u sozlari ham munosib joy olgan. Xususan, g'ijjak cholg'u sozi Sharq xalqlari ijrochilik amaliyotida keng qo'llanilib kelinayotgani bilan e'tiborni tortadi. G'ijjak torli-kamonli musiqa cholg'usi bo'lib, o'zbek, tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkmanlarda «g'ijjak» deb, ozarbayjon, arman, gruzin, eron, turk va boshqa sharq xalqlarida esa «kamon», «kemancha» kabi o'ziga xos nomlar bilan ataladi. Mazkur cholg'ular to'g'risidagi ma'lumotlarni yanada kengroq yoritish maqsadida qo'llanmaga kamonli cholg'ularning qisqacha tavsifi hamda ularning suratlarini ilova sifatida kiritdik.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra g'ijjakning yasalishi Sulton Mahmud G'aznaviy zamoniga, ya'ni X-XI asrlarga to'g'ri keladi. O'rta asr musiqa risolalarida bayon etilgan rivoyatlar g'ijjak cholg'usining kelib chiqishi haqida xabar beradi. Xususan, «Ziynat al-majolis» (Ziynatlarning majlisi) antalogiyasida hikoya qilinishicha, Abu Nasr Farobiy Ray shahrida Sohib ibn Abbod qabulida bo'lganida, vazir sharafiga o'tkazilgan ziyofatda o'zi ixtiro qilgan cholg'uni chalib kuy ijro etadi. Tashqi ko'rinishidan kichik qovoqqa o'xshagan bu soz «g'ipchak» nomi bilan atalgan ekan. Bu cholg'uda Farobiy uch qismli kuy ijro etib tinglovchilarni ham yig'latgan, ham kuldirgan va hayajonga tushirgan ekan.<sup>4</sup>

Har bir yuz yillikda mazkur g'ijjak sozining tuzilishi, undagi torlar soni va boshqa tarkibiy tuzilishida farqlar bo'lganligi ma'lum. Ushbu haqiqatni ko'plab manbalar, arxeologik topilmalar va boshqa ko'plab ma'lumotlar orqali bilib olsa bo'ladi. Masalan, Ibn Sino dastlabki 2 torini kvartaga sozlagan. Qulmuhammad Udiy esa g'ijjakka uchinchi torni qo'shgan. Ungacha 2 torli g'ijjakda ipakdan eshilgan yoki simli aks-sado beruvchi torlar soni 8-11 tagacha bo'lgan. Navoiyning «Majolis un-nafois» asarida aytilishicha, G'ijjakni chala bilish (ya'ni ijro eta olish) barcha saroy sozandalari uchun shart bo'lgan. O'rta asrda Alijon G'ijjakiy, Xo'ja O'zbek G'ijjakiy kabi san'atkorlar mashhur bo'lgan<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> Toshmuhamedov M. G'ijjak darsligi. T., 1995. 3-bet.

<sup>5</sup> Rasulov O'. «G'ijjak» // O'zME 11-jild. Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 231–232 betlar.



G'ijjak sozi qadimdan turli xil sozlar bilan birga yoki yakka tartibda, shuningdek bir necha g'ijjakchilarning birgalikdagi holatida ham ijro etilib kelingan. O'zbek musiqasiga ko'p ovoqlik musiqa kirib kelgunga qadar g'ijjak sozida faqat an'anaviy kuylar ijro etilar edi. Biroq, XX asrning 20–30-yillaridan boshlab milliy ijrochilik san'ati rivojlanishning yangi davriga qadam qo'ydi. Uning qamrovi kengaydi va amaliyotda cholg'u ijrochiligining turli ko'rinish hamda tarkiblari (duet, trio, kvartet, orkestr va h.k) yuzaga keldi. Buning natijasida davrning talab-ehtiyojlariga ko'ra ijodkorlar yetishib chiqib, ijodiyotning yangidan-yangi mahsullari paydo bo'la boshladi. Aynan ushbu omillar tufayli g'ijjak ijrochiligi ham o'zining ijrochilik jabhasini kengaytirdi. Endi g'ijjak sozida nafaqat milliy musiqa, balki jahon klassikasi va kompozitorlikka oid namunalar ham ijro etiladigan bo'ldi.

XIX-XX asr o'zbek milliy musiqa san'ati tarixi zarvaraqlaridan munosib o'rin egallagan g'ijjak ijrochiligi san'ati ustalari To'xtasin Jalilov, Usta Ro'zimatxon Isaboyev, Mamataziz Niyozov, Nabijon Hasanov, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, Doni Zokirov, Muxtorjon Murtazoyev, Sayfi Jalil, Salohiddin To'xtasinov, G'ulomjon Hojiqulov, Yunusqori Yusupov, Karimjon Mansurov, Ollonazar Hasanov hamda bugungi kunda o'zlarining yuksak ijrochilik san'atlari va sermahsul ijodlari bilan yosh avlodga namuna bo'lib kelayotgan Qahramon Komilov, O'lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Tursunboy Jo'rayev, Ziyovuddin Qosimov, Ahmadjon Dadayev, Muhammadjon Maraximov, Mirhosil Azizov, Sharifjon Mamajonov, Murodjon Norqo'ziyev, O'tkir Qodirov, Abdulla Shomag'rupov, Salohiddin Azizboyev, Ma'rufjon Xalilov singari mohir sozandalarning g'ijjak sozi ijrochilik yo'llari, mahalliy uslublar davomiyligini saqlash hamda ularni rivojlantirishda salmoqli o'rin tutishini alohida qayd etishimiz lozim.

Ustozlarning sa'yi harakatlari va ijrochilik borasida olib borgan izlanishlari natijasida sozandalikda ham o'zlariga xos bo'lgan mahalliy uslublarni qaror toptira boshladilar. Xususan, Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubiga xos ijrochilik maktabining namoyandalari – Andijondan To'xtasin Jalilov, Mo'minjon Jabborov, Sobirjon Siddiqov, Mamataziz Niyozov, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, G'ulomjon Hojiqulov, Yunusqori Yusupovlar kabi, Namangandan Muxiddinxoji Najmiddinov, Usta Ro'zimatxon Isaboyev, Karimjon Mansurov, Ziyovuddin Shamsiddinov, Abdug'ofur Niyozaliyev, Abduqahhor Mansurov, Farg'ona viloyatidan Muxtorjon Murtazoyev, Rafiqjon Ahmedov, Abduhoshim Ismoilov, Qahramon Umarov, Toshkentdan Imomjon Ikromov, Ilhom To'raev, Zokirjon Sodiqov, Yoqub buva, Akmalxon So'fixonov, Sunnat Samadov, G'ulomjon Mirzaev, Kommunar Komilov kabi g'ijjakchilarni keltirib o'tish mumkin. Ustoz-shogird an'anasi asosida shakllanib, rivojlangan sozandalik san'atining ijrochilik asosi bir bo'lsada, ijro talqinining o'ziga xosligi va xilma-xilligi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab milliy madaniyatimiz yo'lida o'zbek milliy musiqa merosini tiklash, uni keng va atroflicha o'rganish va rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratila boshlandi. Bu borada ilmiy-nazariy tadqiqotlar va izlanishlar ham keng yo'sinda olib borilmoqda. Muntazam ravishda ilmiy-amaliy anjumanlar, turli bosqichdagi ko'rik tanlovlar o'tkazilib, ta'lim tizimida qo'llaniladigan yangi-yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalar chop etilmoqda. Bugungi kunda an'analar saqlanibgina qolmay, balki rivojlantirilib, zamonaviy yutuqlar bilan boyitilib bormoqda.

\* \* \*



### **Bob yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. O'zbek milliy ijrochilik tarixi haqida so'zlang.
2. G'ijjak cholg'usiga ta'rif bering
3. G'ijjak turli xalqlarda har-xil nomlar bilan atalishligi xususida so'z yuriting.
4. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra g'ijjak sozining yasalishi qaysi asrlarga to'g'ri keladi?
5. Milliy cholg'u sozlarimiz, xususan, g'ijjak cholg'usi haqida ma'lumotlar uchraydigan qo'lyozmalar, tarixiy kitob va risolalarni bilasizmi ?
6. Tarixda yashab o'tgan mashhur g'ijjakchilarni sanang.
7. Nechanchi asrdan boshlab o'zbek musiqasiga Yevropa an'analariga tegishli ko'p ovozi musiqi kirib keldi va buning natijasida g'ijjak ijrochiligida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
8. Zamondosh g'ijjak ijrochiligi san'ati ustalarini sanang va ularning ijodiy faoliyati haqida so'zlang.
9. Mustaqillik yillaridan so'ng g'ijjak ijrochiligi san'atida qanday yangilik va o'zgarishlar sodir bo'ldi?

## II BOB. YUNUSQORI YUSUPOVNING HAYOTI VA IJODIY YO‘LI

### II.1. Yunusqori Yusupovning hayot va ijod yo‘li

Musiqiy merosimiz nihoyatda boydir. U qanchalik chuqur va atroflicha o‘rganilar ekan, yangidan-yangi qirralari ochilaveradi va uning rivojiga o‘zlarining hissalarini qo‘shgan ijodkorlarning nomlari «kashf» etilaveradi.

Shunday iste‘dodli san‘atkorlar orasida Andijon ijrochilik maktabining yorqin namoyandasi, o‘zining qisqagina hayoti davomida o‘zbek milliy musiqa san‘ati rivojiga barakali hissa qo‘shib, tarix sahifalarida o‘chmas iz qoldirgan betakror g‘ijjakchi, yoqimli ovoz sohibi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Yunusqori Yusupov ham bor edi. O‘z davrining mashhur sozandasi va xonandasi bo‘lgan ushbu ijodkor kamon tortganda va kuylaganda davralar sel bo‘lar edi. Chalgan sozida sehr, xonishlarida yuraklarni zabt eta oluvchi go‘zallik bor edi.



Yunusqori Yusupov 1934-yilda Andijon viloyati, Paxtaobod tumani, Ovushqa qishlog‘ida, oddiy dehqon oilasida dunyoga keldi. Bolalik chog‘larining aksariyat qismi urush davriga to‘g‘ri keladi. Yunusning ko‘zi bolaligida qizamiq kasalidan so‘ng ojiz bo‘lib qolgan edi. Ismiga «qori» so‘zining qo‘shib aytilishi ham shundan. U ojiz bo‘lishiga qaramay, zehning o‘tkirligi, musiqiy iste‘dodining yuksak darajada ekanligi bilan kishini o‘ziga tezda jalb etar edi. Uning iqtidorini ko‘rgan otasi yosh Yunusqoriga mandalina cholg‘usini sotib olib beradi. Boshlang‘ich ko‘nikmalarni shu cholg‘uda o‘zlashtira boshlaydi. Ammo, Yunusqoriga bir murabbiy zarur edi. Uning bolalik yillarida bo‘lib o‘tgan bir qancha voqealar, uni san‘atning cheksiz ummoniga yetakladi. Xususan, Yunusqorining oilasi istiqomat qiladigan uyning yon tevaragida paxtachilik kolxozining markaziy binosi joylashgan edi. Bu yerda o‘zi san‘atkor bo‘lmasada, san‘atni sevadigan Ismoilxon ismli chin



shinavanda inson raislik vazifasini o'tar edi. U yosh Yunusqorini ushbu binoga chaqirib olar va to'planganlar oldida qo'shiq hirgoyi qilishini va qo'lidagi mandalina cholg'usida kuylar ijro etib berishini so'rar edi. Bolakayning kundalik ko'ngil ochar hirgoyi va oddiy kuylarni chapani tarzda ijro etishlaridan rais Ismoilxon bu bolada noyob iste'dod bor va Yunusqori haqiqiy san'atkor bo'lib yetishadi degan xulosaga keladi. Shundan so'ng rais bir sozanda tanishidan nay cholg'usini olib, Yunusqoriga tuhfa etadi. Shu kundan boshlab Yunusqori nay chalishni, bu asosida esa milliy musiqamiz bilan chuqurroq tanishishni boshlaydi. Shu alfozda rais Ismoilxon «kuzatuv» ostida oradan bir yil o'tadi va Yunusqori nay cholg'usini ancha-muncha o'zlashtirib oladi. Mazkur ilk qadamlar davri va unga asosiy sababchi Ismoilxon rais bo'lganligini inobatda olgan holda, Yunusqorining birinchi ustozini Ismoilxon rais deb hisoblash mumkin. Chunki, Yunusqorining san'atdagi keyingi pog'onaga ko'tarilishida ham aynan Ismoilxon raisning ta'siri katta. Yunusqorining nayni o'zlashtirib olganligini va san'atga bo'lgan mehri, shuningdek juda tirishqoqligini ko'rgan rais, o'z qo'li ostida ishlaydigan hisobchi Ma'murjon akaga, «qaerdan bo'lsa ham Yunusqoriga g'ijjak topib keling», deb aytadi. Ko'p o'tmay Yunusqori g'ijjak cholg'usiga ham ega bo'ladi va bundan boshi ko'kka yetadi. Endi, g'ijjak sozini o'rganish borasida Ismoilxon rais ham, Yunusqorining o'zi ham haqiqiy bir ustoz zarurligini bilar edilar. Shunday qilib, g'ijjak cholg'usi bo'yicha ilk saboqlarni Paxtaobodlik san'atkor Abdumalikxon Yunusovdan ola boshlaydi. Yunusqori undan g'ijjakning sozlanishi, ijro etish mezonlari va umuman professional ijrochilik jabhasi bo'yicha ko'pgina bilimlar olishga muyassar bo'ladi. Yunusqori kun bo'yi cholg'u chalish, ustozidan olgan bilimlarni mustahkamlash bilan mashg'ul bo'lar edi. Shuningdek, yoshligidan qo'shiq hirgoyi qilib yurish odatini tashlamagan Yunusqori, hofizlik san'atini egallashni ham rejalashtirib yurar va mustaqil ravishda o'z ustida ishlar edi. Tez orada yosh Yunusqori o'zining go'zal ijrosi bilan Paxtaobodlik ustoz san'atkorlar: Usta Hojimat tanburchi, Ergash g'ijjakchi, Orifjon Qodirov, Abdukarim Rasulov, Toshxo'ja Maxsum, Shavkatjon Yusupov hamda Qodir Oxunlarning nazariga tushadi va ulardan ham ashula va cholg'u ijrochiligi bo'yicha saboqlar ola boshlaydi.

Yunusqoriga yorug' dunyoni ko'rish baxti in'om etilmagan bo'lsa-da, u hayot go'zalliklari, insonlarning hayotga bo'lgan munosabatlarini qalbi bilan ko'ra olardi va jamiyat uchun kerakli inson bo'lib yetishish uchun tinmay harakat qilar edi. U o'zining o'smirlik davrini ustozlari yo'lini o'rganish, ularning san'atlarini ziyrak nigoh ila kuzatish va tobora professional ijrochilik sirlarini egallab borish harakati bilan o'tkazdi. Bu izlanishlar samarasi o'laroq, u o'zining qobiliyatini shakllantira oldi va tinimsiz mehnatlari tufayli ustozlarining ishonchini oqlay oldi. Shu zaylda el ichida ham Yunusqori degan nom tanila bordi. Asta-sekin radiodan u ijro etgan qo'shiqlar ham yangray boshladi. Bu haqida keyinroq alohida to'xtalib o'tamiz.

Uning qisqagina sermazmun ijodiy faoliyati ijrochilikning turli jabhalariga asoslangan holda o'tdi. Xalqimiz ham Yunusqori Yusupov ijro etgan asarlarni jon dili bilan tinglar va qalban zavq olar edilar. Davlat tomonidan Yu.Yusupovning milliy musiqamiz rivoji yo'lidagi samarali mehnatlari munosib taqdirlanib «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» unvoni berildi.

Yu.Yusupov 1987-yil ayni san'ati kamolotga yetgan vaqti 53 yoshida dunyodan o'tdi. U milliy musiqa san'atimizning rivojlanishi uchun o'zining go'zal ijrochilik uslubini, rang-barang ijod namunalarni, munosib izdoshlari va yaxshi farzandlarini yodgorlik sifatida qoldirdi. Yu.Yusupovning farzandlaridan tashkil topgan oilaviy ansambl bir qator ko'rik tanlovlarda yuqori natijalarni qo'lga kiritib 1998-yilda Oilaviy ansambllar ko'rik tanlovining Respublika bosqichida faxrli II o'rinni egalladi.





Chapdan: Yunusqori Yusupov (skripka), Raimjon aka (nay),  
Jo'divoy Jumanov (rubob), To'lashboy aka (doyra)



Andijon viloyati Paxtaobod tumani muzeyidagi Yu.Yusupov hayoti va ijodiga  
bag'ishlangan burchagi





Chapdan: To'lashboy aka (doyra), Kozimjon Karimov (nay), Yunusqori Yusupov (skripka), Husanxon Yuldoshev (chang), Jo'ldivoy Jumanov (g'ijjak), Ne'matjon Ahramov (rubob), Odinaxon Azimova (raqs)



Chapdan: Abdurasul Siddiqov (doyra), Yunusqori Yusupov (g'ijjak), Jo'ldivoy Jumanov (skripka), Adham Yunusov (rubob), Ne'matjon Ahramov (rubob), Xotiraxon (raqs)



## II.2. Yunusqori Yusupov — mohir sozanda

Taniqli sozandalar: Abduqodir Ismoilov (nay), Ahmadjon Umurzoqov (qo'shnay, surnay), Ashurali Yusupov (surnay), Shobarat tanburchi, Abdumutal Abdullayev (tanbur), Muhiddin Hoji Najmiddinov (dutor, tanbur), Abdusolat Vahobov (dutor), Komiljon Jabborov (g'ijjak, dator, tanbur), Maqsudxo'ja Yusupov (tanbur), Saidjon Kalonov (nay), G'anijon Toshmatov (g'ijjak), Turg'un Alimatov (tanbur, dator, g'ijjak), G'ulomjon Hojiqulov (g'ijjak) kabi mahoratli ijrochilar qatorida Yunusqori Yusupov (g'ijjak, dator, nay) nomini alohida ta'kidlash kerak.

G'ijjak cholg'usi Yu.Yusupovning bir umrlik hamrohi edi. Milliy cholg'u hisoblangan g'ijjakda u shunday ijro etar ediki, uning nolalaridan insonning qalb tubida yotgan yashirin his-tuyg'ular jumbushga kelar edi.



Yunusqori Yusupov ijod jarayonida<sup>6</sup>

Yu.Yusupov milliy ijrochiligimizga o'zining betakror ijrochilik mahorati bilan yangiliklar olib kirdi. U g'ijjak cholg'usida surnay yo'llarini nihoyatda yuksak mahorat bilan ijro etgan. Surnay cholg'usida qo'llaniladigan ijro bezaklaridan mohirona foydalanib, ayrim tovushlarni qo'sh torda ijro etib, aynan surnay ovozidek tovush hosil qila olgan. Katta ashula janrini esa xonandalikda qo'llaniladigan ijro bezaklari, dinamika va hatto nafas olish qonun-qoidalariga ham rioya etgan holda g'ijjakda ijro etgan. Yuqorida aytilgan fikrlarga musiqiy yozuvlar «Oltin fondi» xazinasidan joy olgan surnay yo'llaridan «Surnay Dashtnavosi» hamda «Guluzorim qani» katta ashulasi yaqqol misol bo'la oladi.

<sup>6</sup> Mazkur surat Yunusqori Yusupov haqidagi videolavhadan olingan.





Yu.Yusupovning eshitish qobiliyati hamda ijro texnikasi shu darajada yuqori bo'lganki, g'ijjakda karnay ovozi, odamlarning bir-biri bilan o'zaro muloqoti, er-xotinning janjallashib qolgan holati, hayvonlar va qushlarning ovozi, mashinalarning signaliyu-dirillashlarini ham yaqqol aks ettira olgan. Albatta bular yuksak iqtidor va tinimsiz mashqlar natijasida yuzaga kelgan.



### **II.3. Yunusqori Yusupov — mohir xonanda**

Yunusqori Yusupovning xonandalikdagi sermazmun ijodiy faoliyati ham alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu jabha uni elimizga tanitgan asosiy omil bo'lib xizmat qilgan desak, adashmagan bo'lamiz.

1958-yilda Paxtaobodda taniqli shoir Habibiyning 70 yoshlik yubileyini nishonlash uchun o'tkazilgan anjumanga poytaxt va viloyatlardan taniqli shoir va yozuvchilar, xonanda-yu sozandalar tashrif buyurdilar. Konsert dasturida



Yu.Yusupov ham ishtirok etib mashhur «Qaro ko'zim» ashulasini yuksak mahorat bilan ijro etadi. Sobir Abdulla, Anisiy, Habibiy, Quddus Muhammadiy, Ulfat kabi tanikli shoirlar va butun anjuman ishtirokchilari uning ijrosidan zavqlanib, tahsinlar aytishadi. Habibiy domla yosh xonandaning maqom yo'llarini yuksak darajada o'zlashtirganidan xursand bo'lib:

«Bizning tumanimizdan ham bitta «Rajabiy» chiqibdi-da»,– dedi va quyidagi savolni berdi:

– Respublika radiosiga borganmisiz?

– Yo'q, – dedi Yunusqori.

– Ovozingsizdan bahra oldik. Agar butun Respublikamiz aholisi ham bahramand bo'lsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Shu kuni Habibiy domla Yunusqoriga kerakli tavsiyalarni berib ketdi. Oradan bir oylar o'tgach akademik Yunus Rajabiydan maktub keldi. Unda Yunusqori Respublika radiosiga tanlovda ishtirok etish uchun taklif etilgan edi.



Yunusqori xat orqali tanlov xabarini bilgach, o'sha paytlarda haydovchilik vazifasida ishlagan va u bilan tez-tez uchrashib turadigan Nasrullo Odilovning oldiga boradi. Nasrullo Odilov bu voqealarni quyidagicha eslaydi:

«Kunlardan bir kuni Yunusqori menga shunday deb qoldi:

– Konkurs e'lon qilinibdi! Siz bilan birga borib kelsak, nima deysiz? Men esa rozi bo'ldim va albatta, siz bilan birga boraman dedim. Toshkentga yetib borgan vaqtimizda, afsuski, konkurs yakunlangan ekan. Mutasaddilar konkursdan kech qolganligimizni aytishdi. Yunusqori aytdiki, Yunus Rajabiyini bir ko'rishga mushtoqman, meni ustoz bilan uchrashtirsangiz, deya iltimos qilib qoldi. Men esa o'sha yerdagi xodimlar orqali Yunus Rajabiyga xabar yetkazdim va repititsiya jarayonlari tugagach biz bilan uchrashishi mumkinligini xabarini oldim. Bir ozdan so'ng bizni ichkariga taklif qilishdi. «Biz Paxtaoboddan keldik», deya gap boshladik va konkursga kech qolganimizni aytdik. Yunus Rajabiy, «Bo'lar ish bo'libdi, ammo







Yunusqorini ovozlari tinglab ko'raylik. Ma'qul kelsa magnit tasmasiga yozdirib olamiz», dedilar. Yunusqori esa, Yunus Rajabiyga «Qaro ko'zim» ya'ni «Ushshoq» ashulangizni (siz ijro etgan) aytsam maylimi? deb so'radi. Yu.Rajabiy aytib dedilar. Yunusqori uni kuylay ketdi. Xonish nihoyasiga yetgach, Yu.Rajabiy juda xursand bo'ldi va yana bir noyob ovoz kashf etilganligini payqadi.<sup>7</sup>

Shunday qilib, o'sha kuni ko'hna «Ushshoq» ashulasi Yunusqorining yoqimli ovozida o'zgacha jilo topib, magnit tasmasiga muhrlandi va Respublika radiosida eshittirishga ruxsat berildi<sup>8</sup>.

## USHSHOQ

A.Navoiy g'azali  
Mulla To'ychi Toshmuhammedov kuyi  
Yunusqori Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan

$\text{♩} = 100$












<sup>7</sup> Sayfiddin Odilovning Yunusqori Yusupov haqida tayyorlagan video lavhasidan.

<sup>8</sup> Yunusqori ijrosidagi «Qaro ko'zimni» diskdan tinglashingiz mumkin.

sin ya - sa gul - shan,  
 Qa - ding ni - ho li - g'a jon gul - sha -  
 nin cha - man qil - g'il o -  
 - o -  
 Ta - ko - va - ring - ga ba - g'ir qo - ni - din  
 xi - no bog' - la  
 I - ting - - - g'a g'am - za - da jon  
 rish - ta - sin ra - san qil - g'il o -











an - ju - ma - ni shav - q(i) jon a - ro tuz - sang(ey)  
 o - - - - - o - - - - -  
 - o - - - - - o - - - - -  
 - - - - - A -  
 ning bo - shog' - lig' o' - qin sham' - i an - ju - man qil -  
 g'il yo - ray  
 ey yo - ray a - do - man  
 voy yo - ray ey yo - ray  
 o - - - - - o - - - - - yo  
 rit.  
 ray o - yo - ra-mo

Qaro ko'zim, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,  
Ko'zim qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Yuzung guliga ko'ngul ravzasin yasa gulshan,  
Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Takovaringg'a bag'ir qonidin xino bog'la,  
Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Yuzung visolig'a yetsun desang ko'ngullarni,  
Sochingni boshtin-ayog' chin ila shikan qilg'il.

Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone',  
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Yuzida terni ko'rib, o'lsam, ey rafiq, meni  
Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg'il.





Navoiy, anjumani shavq jon aro tuzsang,  
Aning boshog'lig' o'qin sham'i anjuman qilg'il.

Bu voqealardan so'ng Yu.Yusupovning ijodiy faoliyati yanada ravnaq topa boshladi. Natijada uning ijrosidagi «Bayot I», «Jononim kelib», «Guljamol», «Ko'zing», «Farg'onacha», «Surnay Dashtnabodi», «Guluzorim qani», «Kelibdur», «Bilmasang bilgin», «Sozandalar madhi» kabi bir qator asarlar Respublika radiosining musiqiy yozuvlar «Oltin fondi» xazinasidan joy oladi.


### BAYOT I

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan  
Y.Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan


$\text{♩} = 100$









tash na - i di - dor o' - lan - dan so'r




La-bing sir -




rin ke lub guf - to - ra man - dan o'z - ga - dan so'r -




-ma Bu pin - hon nuk - ta-



ni bir vo qi - fi as - ror o' lan - dan so'r




o - - o -




Ko' - zi yosh - lu - la - ring ho - lin



na bil - sun mar - du - mi g'o - fil





Ka - vo - kib say - ri - ni shab



to sa-har be - dor o' lan - dan so'r






Ko' - zi yosh - lu - la ring\_\_\_ ho -




- lin Ko'zi yosh - lu - la ring\_\_\_ ho - lin\_\_\_ na bil - sun\_\_\_



mar - du - mi g'o - fil Ka-



vo - kib say - ri - ni\_\_\_ shab\_\_\_ to sa-har be - dor o' lan -




- dan so'r\_\_\_ o\_\_\_ o\_\_\_



Xa - bar - siz o'l - ma



fát - ton\_\_\_ ko'z - la - ring jav - rin\_\_\_ che - kan - lar - dan(ey)\_\_\_



vo - yey Xa - bar - siz



mast - lar\_\_\_ be - do - di - ni hush - yor o' - lan - dan

so'r(e) o - - - o - - -

g'a-ming-dan sham' - dek

yon - dim, sa - bo - dan so'r - ma ah - vo - lim

Bu ah - vo - li sha - bi hij - ron

ma nim - la yor o' - lan - dan so'r o -

o - - - - - vo - yey

Xa - ro - bi jo - mi ish - qam, nar -

gi - si mas - ting bi - lur ho - lim(cy)

vo - yey Xa - ro - bot ah - li-



ning ah-vo li-ni xum - mor o' -lan - dan so'r(e)

o - - o - - o - -

Mu-hab - bat laz - za -

ti - dan o - - o - -

jo - ni - - mo

o - Mu - hab - bat

laz - za - ti - dan be - xa - bar - dir zo - hi - di g'o -

fil(ey) Fu-zu- liy, ish

zav - qin zav - qi ish - qi vor o' - lan - dan so'r

vo - yey o

o - jo - na - mo

Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,  
Zuloli zavq shavqin tashnai diydor o'landan so'r.

Labing sirrin kelub guftora mandan o'zganidan so'rma,  
Bu pinhon nuktani bir voqifi asror o'landan so'r.

Ko'zi yoshlularing holin na bilsun mardumi g'ofil,  
Kavokib sayrini shab to sahar bedor o'landan so'r.

Xabarsiz o'lma fatton ko'zlaring javrin chekanlardan,  
Xabarsiz mastlar bedodini hushyor o'landan so'r.

G'amingdan sham'dek yondim, sabodan so'rma ahvolim,  
Bu ahvoli shabi hijron manim-la yor o'landan so'r.

Xarobi jomi ishqam, nargisi masting bilur holim,  
Xarobot ahlining ahvolini xummor o'landan so'r.




Muhabbat lazzatidan bexabardir zohidi g'ofil,  
Fuzuliy, ishq zavqin zavqi ishqiqi vor o'landan so'r.

### SOZANDALAR MADHI

Habibiy g'azali

Yunusqori Yusupov musiqasi

Yunusqori Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan



O'r - gi - lay — so - zan - da - lar - ning so - zi - dan —



21  
 chol - g'u - si - dan,

26  
 Yan - gi - yan - gi ber - gan ul il - ho - mi - dan,

31  
 tuy - g'u si - dan

36  
 Yig' - la - sa yig' - lat - gay, am - mo kul - di -

41  
 rar kul - gu - si - dan, Har ko'n - gil - ni

46  
 shod e - tib o - zo - ri - dan qay - g'u si - dan

51  
 Har sa - do ber -

56  
 gay xa - bar har kim - ning o'z dil - jo' -

60  
 si - dan

66  
 To - ru par - da, ze - ru bam - lar - ni mu -

71  
 no - sib band e - tar

76  
So'z bi - la kuy ik - ki - sin\_\_\_ av - val - da\_\_\_

81  
xo'b\_\_\_ mo nand\_\_\_ e - tar

86  
o - - - Bir - bi - ri\_\_\_

91  
\_\_\_ ga bog' - lab, us - to - - lik - bi - lan\_\_\_ pay - vand

96  
\_\_\_ e - tar, \_\_\_ Gul - la - tib\_\_\_ suh - bat - ni suh -

101  
- bat\_\_\_ ah - li - ni\_\_\_ xur - sand\_\_\_ e - tar, \_\_\_

106  
Ux - la - may bir dam ke - chib\_\_\_ tun - lar shi - rin\_\_\_

111  
\_\_\_ uy - qu\_\_\_ si - dan. \_\_\_

116  
Ux - la - may\_\_\_ bir\_\_\_ dam ke chib\_\_\_ tun - lar shi rin\_\_\_

121  
\_\_\_ uy - qu - si - dan.

126  
Chiq - di xalq\_\_\_ o - han - gi - ni\_\_\_



131  
par - doz e - tib o - vo za - si

136  
Sah - na - lar sah - ni - ga lo -

141  
- yiq yal - la - lar an - do - za - si,

146  
o -

4  
151  
- - Bo'l - di san' - at daf - ta - rin jon

156  
- rish - ta - si she - ro - za - si, Ey Ha - bi -

161  
- biy, kim - ki to - lib - - dur, o - chiq dar - vo -

166  
- za - si, Har ko'n - gil - ni shod e - tib

171  
- o - zod e - tar qay - g'u - - si - dan

176  
Har ko'n - gul - ni shod e - tib

181  
- o - zod e - tar qay - g'u - - si - dan

O'rgilay sozandalarning sozidan, cholg'usidan,  
 Yangi-yangi bergan ul ilhomidan, tuyg'usidan.  
 Yig'lasa yig'latgay, ammo kuldirar kulgusidan,  
 Har ko'ngilni shod etib ozoridan, qayg'usidan,  
 Har sado bergay xabar har kimning o'z diljo'sidan

Toru parda, zeru bamlarni munosib band etar,  
 So'z bila kuy ikkisin avalda xo'b monand etar,  
 Bir-biriga bog'lab, ustolik bilan payvand etar,  
 Gullatib suhbatni suhbat ahlini xursand etar,  
 Uxlamay bir dam kechib tunlar shirin uyqusidan.

Chiqdi xalq ohangini pardozi etib ovozi,  
 Sahnalar sahniga loyiq yallalar andozi,  
 Bo'ldi san'at daftarin jon rishtasi sherozi,  
 Ey Habibiy, kimki tolibdur, ochiq darvozasi,  
 Har ko'ngilni shod etib ozod etar qayg'usidan.

### JONONIM KELIB

(Qashqarchai Savti Ushshoq kuyi asosida Yunusqori Yusupov bastalagan)

Habibiy g'azali

Yunusqori Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan

$\text{♩} = 100$


*mf*

Ko'ng lim o - rom ol - di g'am lar ket - di jo - no - nim ke-lib


Qay - si jo - non - dur - ki go'yo - jism a - ro - jo -

nim ke lib *mp* To'l - gan oy - dek yuz - la - ri - dan







nur o-lur har dam ko'zim Yash-na-di har bir to mir-da




o'y-na-di qo-nim ke lib Ko'k-ka bo-shim




et-di faxr ay-lab ko'n gul tog' der-gu-si




Yo'q lab ah-vo-lim so'rab shav-kat-li meh-mo-nim ke lib




Bo'l-di qiz-g'in suh-bat ay-lan-di qa-dah-lar




to'x-ta-mas Yal-la qil-di soz o-lib qo'l-ga g'a zal-xo



1. nim ke lib 2. nim ke lib



Sho-du xur-ra-mi qu-yo-shi bo-shim uz-ra soch-di nur



Sho-du xur-ra-mi qu-yo-shi bo-shim uz-ra soch-di nur

Zav-qim osh-di sev-gi-ki yo - ru qa d(i)r do -

nim\_ ke lib Tark e - tay meh - rim de-sam to -

bo - ra meh rim or - ta-dur Dil - ga har do-im Ha bi - biy\_

— ah - du pay - mo - nim\_ ke lib nim\_

Ko'nglim orom oldi g'amlar ketdi jononim kelib,  
Qaysi jonondurki go'yo jism aro jonim kelib.

To'lgan oydek yuzlaridan nur olur har dam ko'zim,  
Yashnadi har bir tomirda o'ynadi qonim kelib.

Ko'kka boshim yetdi faxr aylab ko'ngul tog' dergusi,  
Yo'qlab ahvolim so'rab shavkatli mehmonim kelib.

Bo'ldi qizg'in suhbat aylandi qadahlar to'xtamas,  
Yalla qildi soz olib qo'lga g'azalxonim kelib.

Shodu xurrami quyoshi boshim uzra sochdi nur,  
Zavqim oshdi sevgili yoru qadrdonim kelib.

Tark etay mehrim desam tobora mehrim ortadur,  
Dilga har doim Habibiy, ahdu paymonim kelib.



# KO'ZING

O.Hotamov musiqasi  
Y.Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan

$\text{♩} = 100$

Musical notation for the first system, including a treble clef, a 2/4 time signature, and a key signature of one sharp (F#). The melody starts with a quarter rest followed by a quarter note G4, a quarter note A4, and a quarter note B4. The bass line consists of a quarter note G2, a quarter note A2, and a quarter note B2.





# FARG'ONACHA

O'zbek xalq kuyi  
Y.Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan

$\text{♩} = 140$

The musical score is written in 6/8 time with a tempo of 140 beats per minute. It consists of a melody line in the upper staff and a bass line in the lower staff. The melody line begins with a treble clef and a key signature of one flat (B-flat). The bass line begins with a bass clef and a key signature of one flat. The score is divided into several measures, with some measures containing repeat signs. The melody line features various rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and rests. The bass line provides a steady accompaniment with eighth and sixteenth notes. The score concludes with a double bar line and repeat dots.



Six staves of musical notation in treble clef. The first staff begins with a half note G4, followed by quarter notes F4, E4, and D4. The second staff continues with quarter notes C4, B3, A3, and G3. The third staff features eighth notes G4, F4, E4, D4, C4, B3, A3, and G3. The fourth staff has quarter notes G4, F4, E4, and D4. The fifth staff contains eighth notes G4, F4, E4, D4, C4, B3, A3, and G3. The sixth staff concludes with quarter notes G4, F4, E4, and D4.

**GULUZORIM QANI?**

**Kuychan**

Xalq kuyi  
Y.Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan

Four staves of musical notation for the piece "Kuychan". The notation is in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a 10/8 time signature. The first staff begins with a piano (*p*) dynamic marking and features a melodic line with eighth notes and slurs. The second staff continues the melodic development with similar rhythmic patterns. The third and fourth staves further elaborate on the melody, incorporating various note values and slurs.



This page of musical notation consists of ten staves of music, all in the key of G major (one sharp). The notation is written in a single melodic line on a five-line staff. The music features a variety of rhythmic and melodic patterns, including eighth and sixteenth notes, slurs, trills, and ornaments. The first staff begins with a treble clef and a key signature of one sharp. The second staff continues the melodic line with similar rhythmic patterns. The third staff introduces a trill on a note. The fourth staff features a slur over a series of notes. The fifth staff is a blank staff with a treble clef and key signature. The sixth staff continues the melodic line with a slur. The seventh staff features a trill. The eighth staff continues the melodic line with a slur. The ninth staff features a trill. The tenth staff concludes the page with a double bar line and a repeat sign.



Yunusqori ijrosidagi quyidagi ashula orqali ko'z oldimizda o'z diyori sari talpinayotgan jahongir Bobur Mirzo gavdalanadi.

### GULJAMOL

Bobur g'azali  
G'.Toshmatov musiqasi  
Y.Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan

♩ = 120

*mf*

*f* Gul ja mo  
*mf*

lin yop- qan ul gul ning ik ki  
*f*

ray ho - ni - dur, G'un-cha sir - rin och - qon  
*f*

ul ik- ki la bi xan-do ni - lur

*p* Ul ma sal sal ik - ki zul - fi

gul yu zi ning dav- ri - da Gul u- za

og' nar ma - gar ul ik- ki



ning dav-ro ni dur Sel e mas dur

yer yo - zin tut- qon ko' - zim

ning yo - shi - dur Ra'd e mas dur ko'k - ka

chir - - *p* mash-qon ko'n - gul af- g'o ni dur *mf* <

Lo- ja - ram

bo'l-g'ay pa ri cho-nu ha vo yi men ki bi

Zar-ra yang - - - lig' kim - ni bir

Xur shed sar - - gar - do - ni dur Ul pa ri *mf*

ish qi - da Bo-bur ko'ng lim an -

doq tel - ba - dur Kim, so chi  
*p*

zan ji - ri - dur cho - hi zi - han  
*f*

zin do - ni dur Kim, so chi zan ji - ri -

dur cho hi zi - han zin do - ni - dur  
*f*

Gul jamolin yopqon ul gulning iki rayhonidur,  
G'uncha sirrin ochqon ul ikki labi xandonidur.

Ul musalsal ikki zulfi gul yuzining davrida  
Gul uza og'nar, magar ul ikkining davronidur.

Sel emasdur Yer yuzin tutqon-ko'zimning yoshidur,  
Ra'd emasdur ko'kka chirmashqon- ko'ngul afg'onidur!

Lojaram, bo'lg'ay parishonu havoyi men kibi-  
Zarra yanglig' kimki bir xurshed sargardonidur.

Ul pari ishqida, Bobur, ko'nglum andoq telbadur  
Kim, sochi- zanjiridur, choxi zaqan- zindonidur.

Yunusqori Yusupovning xonandalik faoliyati ko'pgina qirralarni o'zida mujassam etgan. U milliy ashulalarimizni ustozlardan o'rganib, ularni maromiga yetkazib ijro etish bilan birga, o'zining chiroyli uslubi orqali bu asarlarni o'ziga xos tarzda talqin etdi. Uning xonandalikdagi e'tiborli jihati – uyg'ur millatiga mansub ustoz Qodir Oxundan olgan bilimlarining natijasi o'laroq, uyg'urcha ijro bezaklaridan ma'lum o'rinlarda ustalik bilan foydalangan. Shu bilan birga, uyg'urcha qo'shiqlarni ham maromiga yetkazib ijro etgan.

Yunusqori Yusupovning ovozi radio to'lqinlari orqali yangrab, uning ijodiy faoliyati tobora keng quloq yoyib borar edi. Shu bilan birga, Yunusqori atrofida uning ijrochilik mahoratiga havas bilan qaraydigan yosh musiqa shaydolari ham to'plana bordi. Shu munosabat bilan, u maktab va jamoa xo'jaligidagi badiiy havaskorlik to'garaklariga rahbar etib tayinlanadi va ko'plab yosh havaskorlarni san'at yo'liga yetaklaydi. Yunusqori Yusupov uzoq yillar Zokirjon Habibiy nomidagi



Madaniyat uyida ijodiy faoliyat ko'rsatdi. Ustoz bu davr mobaynida qator shogirdlar yetishtirdi.



Ustozlik maqomi – oliy maqomdir. Bu darajaga yetishish uchun avvalo chuqur bilim va katta tajribaga ega bo'lish lozim. Shu bilan birga ulug' ustozlar etagini ham tutmoq lozim. Chinakam ustoz hisoblangan Yunusqori Yusupovning ham ustozlik maqomini egallashida bir qancha yetuk san'atkor ustozlarning o'rni katta. Yu.Yusupov ustozlaridan o'rgangan bilim va ko'nikmalarini o'zining o'qituvchilik faoliyati davomida yanada boyitdi va ulardan unumli tarzda foydalana oldi.

Ustoz Yu.Yusupov Andijon viloyatidagi va Respublikamizdagi ko'pgina san'atkorlarning ham ustozlari edilar. O'zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Yo'ldoshev, taniqli san'atkorlar Jo'raboy va Arabboy Qurbonovlar, Abdurasul Siddiqov, Komiljon Hakimov, Jamilaxon Asrorovalar uning shogirdlaridandir.







Paxtaobodda 1970-yilda Yu.Yusupov tashabbusi bilan «Guljamol» nomli milliy ansambl tashkil etildi. Ansamblning ijro dasturlari maqom yo'llari, xalq qo'shiq-kuyleri, hassos bastakorlarning go'zal ijod namunalari bilan boyidi.



Ansambl Yu.Yusupovning ijodiy yo'lini davom ettirib kelmoqda. Shuningdek, «Marhabo talantlar», «Chashma» kabi Respublika teletanlovlarida ishtirok etib, muntazam yuqori o'rinlarni egallab kelgan. Hozirda bu dastaga iqtidorli san'atkor Komiljon Hakimov rahbarlik qilmoqda.





#### II.4. Yu. Yusupov – yetuk bastakor

Bastakorlik – bu ulug' «unvon». Bu darajaga har kim ham erisha olmaydi. Mohir sozandalik, salmoqli amaliy tajriba, tinimsiz mehnat, ijodkorlik qobiliyati va eng muhimi musiqiy ilmga egalik jihatlari shakllangachgina bastakorlik faoliyatini olib borish maqsadga muvofiqdir. Keksa avlod xalq sozanda va bastakorlari — A.Abdurasulov, T.Toshmuhammedov, T.Jalilov, Yu.Rajabiy, I.Ikromov, K.Jabborov, G'.Toshmatov, S.Kalonov, F.Sodiqov, D.Zokirovlar nomlari qatorida Yunusqori Yusupovni ham alohida zikr etish joiz. Bu bastakorlarning asosiy yutug'i shundan iboratki, ularning meros qilib qoldirgan asarlari hozirgi kunimizda ham «hayot» kechirmoqda va kishilarga estetik zavq, ma'naviy ozuqa va milliylik hislarini ulashmoqda. Aslini olganda hozirgi zamonaviy bastakorlik yo'nalishi uchun **namuna** sifatida qolmoqda.

Yu.Yusupovning bastakorlik ijodiga nazar tashlasak uning betakror, mukammal va xalqchil asarlar yaratganining guvohi bo'lamiz. «Kelibdur», «Yaxshi», «Mubtalo etdi», «Bilmasang bilgin», «Sozandalar madhi», «Davron taronasi», «Mirzacho'l qizlari», «Samarqand» kabi asarlar shular jumlasidandir.

# KELIBDUR

M.M. ♩=88-92

Mashrab g'azali  
Yunusqori Yusupov musiqasi  
Yu. Yusupov ijrosidan N. Qodirov notaga olgan

Dil-bar yu-zi - ni

ko'r - ga-li de-vo - na ke-lib - dur,

Yuz no - zu ka-rash - ma bir - la ja - no - na ke-lib - dur.

De-vo - na - yi sho' - ri - da, bu jo -

- ning-ni fi - do qil, Ko - ki - li a - ning

be - li - ga chul-g'o-na ke-lib - dur.

Yuz jo - ning a - gar bo'l - sa a - ning

yo' - li - da ko'r - gil, Ja - no - na bi - la

ko'z - la - ri mas - to - na ke-lib - dur.



Jo - ning - ni fi - do ay - la - gil, ey Mash - ra - bi xas - ta  
 Lab - la - ri sha - kar, tish - la - ri  
 dur - do - na ke - lib - dur, Lab - la - ri sha - kar,  
 tish - la - ri dur - do - na ke - lib - dur.

Dilbar yuzini ko'rgali devona kelibdur,  
 Yuz nozu karashma birla janona kelibdur.

Devonayi sho'rida bu joningni fido qil,  
 Kokili aning beliga chulg'ona kelibdur.

Yuz joning agar bo'lsa aning yo'lida ko'rgil  
 Janona bila ko'zlari mastona kelibdur.


Joningni fido aylagil, ey Mashrabi xasta  
 Lablari shakar, tishlari durdona kelibdur.

### BILMASANG BILGIN


Lohutiy g'azali,  
 Y.Yusupov musiqasi  
 Y.Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan

♩ = 120


O' zing - ga o - shi - qu shay - do e - rur - man  
 bil - ma - sang bil sin



Ku-yar man or - zu-ying - da o'r - ta - nur - man



bil - ma sang - bil - gin.



Ku-yar - man or - zu-ying - da o'r - ta - nur - man




bil - ma sang bil gin.




Ra-qib - ni ban - di zan - jir hiy- la mak - ri



ko'z-ga il mas - dan



Di - kim - da sen to - mo - ning - ga bo - rur - man



bil - ma sang bil - gin.



Di - lim - da sen to - mo - ning - ga bo - rur - man



bil - ma sang bil - gin.



bil - ma sang bil - gin.



Se - ni ko' - ying - da ko'ng - lim bosh - qa joy - - ga.

kir - ma di - har - giz.

So - ching - ni to - ri - ga bog' - liq ko' - rur - man.

bil - ma sang - bil - gin.

Bi - lar - mi - san - go' - zal yo - rim - e - rur - ov - vo -

ra Lo - hu - ti.

Go' zal hus - ning - ni shay - do - si - e - rur - man.

bil - ma sang - bil - gin.

*rit.*

Go' zal hus ning - ni shay do - si e rur - man bil - ma sang - bil - gin.

O'zingga oshiqu shaydo erurman, bilmasang bilgin,  
Kuyarman orzuyingda o'rtanurman, bilmasang bilgin.

Raqibni bandi zanjir hiyla makrini, ko'zga ilmasdan,  
Dilimda sen tomoningga borurman, bilmasang bilgin.

Seni ko'yingda ko'nglim boshqa joyga kirmadi hargiz,  
Sochingni toriga bog'liq ko'rurman bilmasang bilgil.

Bilarmisan go'zal yorim erur owora Lohutiy,  
Go'zal husningni shaydosi erurman, bilmasang bilgil.

Yu.Yusupovning bastakorlik faoliyatida katta yutuqlarga erishishida – uning **serqirra** faoliyat olib borganligi asosiy omillardan biri edi. Ha, Yu.Yusupov ham sozandalik, ham xonandalik, ham bastakorlik jabhalarini o'zining qizg'in ijodiy faoliyatida birlashtirgan edi. Shuning uchun ham u bastalagan kuy va qo'shiqlarning barchasi yetuk va go'zal asarlar sirasidan joy olar edi. Haligacha uning asarlari el orasida muntazam ravishda ijro etilib kelinmoqda, xonanda va sozandalar repertuaridan munosib joy egallab kelmoqda. Yu.Yusupovning o'ziga xos ijodiy uslubini ilmiy tarzda belgilashda ham uning aynan ushbu faoliyat turi yaqindan yordam beradi. Bu haqida III bobda so'z yuritiladi.

## II.5 Yu.Yusupov – yetuk san'atkorlar e'tirofida

Yunusqori Yusupov o'zining insoniylik fazilatlari, yetuk san'atkorlik jihatlari bilan barchaning hurmat-e'tiboriga tushgan edi. Uni yosh-u qari, do'st-u birodar, oddiy xalq va san'atkorlar chin dildan hurmat qilar edilar. Ushbu fikrlarning tasdig'i uchun quyida keltiriladigan matnlar Yunusqori Yusupovning chin inson va yetuk san'atkor ekanligidan darak bersa, ajab emas.

**O'zbekiston xalq artisti, bastakor G'. Hojiqulov:** Yunusqori o'tkir zehnlilik, yuksak iste'dodli, talabchan, doimo intiluvchan, samimiy inson edi, – deb eslaydi.

**Obidjon Yoqubov Yu.Yusupov haqidagi iliq xotiralarini quyidagicha bayon etadi:** «Yunusqori akamning ijobiy tomonlar juda ko'p edi. Avvalo, u inson o'ta kamtarin bo'lganlar. Hatto yoshlarning ham gapini ikki qilmay, iltimosini rad etmas, doimo istaklarini bajarar edi. Ikkinchidan, Yunusqori ham sozanda, ham xonanda bo'lgan. Bundan tashqari to'y marosimlari bo'ladimi, turli xil yig'ilish va kechalar bo'ladimi, uzoqdan uning ovozi tezda tanir edik va Yunusqori shu yerda ekanlar deb, kayfiyatimiz yanada ko'tarilar edi.

**O'zbekiston xalq xofizi M.Yo'ldoshev quyidagi xotiralarni yodga oladi:**

Men Yunusqori Yusupov bilan 1965-yilda tanishganman. Yunusqori Yusupov o'sha paytda Andijon viloyati Paxtaobod tumanidagi Madaniyat uyida musiqa rahbari bo'lib ishlar ekanlar. Mazkur yillar men xonandachilik kasbini endi egallagan davrimga to'g'ri keladi va Yunusqori Yusupovdan juda ko'p qo'shiqlarni o'rgandim. Bu inson bilan turli xil konsertlarda ishtirok etish, shuningdek boshqa ko'pgina ijodiy jarayonlarda ham birga qatnashish menga nasib etdi. U kishi juda xushchaqchaq va ko'ngli ochiq inson bo'lganligi sababli, ko'p hazil-mutoiba qilar edik.<sup>9</sup>

1986-yillar atrofida Paxtaobod tumanida tuzilgan «Qirq qiz ashula va raqs ansambli» o'z faoliyatini yuritir edi. Shu ansambl bilan ko'pgina ijodiy safarlarga borganmiz. Xususan, Toshkentdagi televideniye kelishimiz va bu chiqishning katta muvaffaqiyat bilan yakunlanishida ham Yu.Yusupovning juda katta hissalar bor. Ushbu konsert dasturini Yu.Yusupov yaxshi bilar edi va o'zi sozandachilik bilan birga, ansamblni ham boshqarib turgan va h.k. Ammo, bu konsert

<sup>9</sup> Masalan, turli ziyofatlarda dasturxonga osh tortilsa, hazillashgannamo undagi go'shtlarni yonimga tortib olar edim.Tabiiyki, Yu.Yusupov «go'sht chiqmagani» uchun «oshga go'sht solinmagan bo'lsa ham mazali bo'libdimi?!» der edilar.



boshlanishidan avval o'sha yerdagi mutasaddilar «ko'zi ojiz odam sahnaga chiqishi mumkin emas!» degan vaj bilan Yu.Yusupovning sahnaga chiqishiga ruxsat bermadilar. Bundan Yu.Yusupov juda xafa bo'ldilar va ilojsizlikdan parda ortida ansamblni boshqarib turdilar.

Yu.Yusupov nihoyatda sezgir va ziyrak inson edilar. 1975-yilda Izbosgan tumanida bir anjuman bo'lib o'tdi. U yerga Paxtaoboddan Yu.Yusupov, Andijon shahridan esa ustozimiz G'ulomjon Hojiqulovlar taklif etilgan edi. Belgilangan vaqtda anjuman boshlandi. Ammo, G'ulomjon Hojiqulov kechikar edilar. Anjuman boshlanganligi sababli, Yunusqori aka o'zi va bir sozanda sherigi bilan ikkita skripkada «Nasrulloiy» kuyini chala boshladilar. Kuy yarmida G'ulomjon Hojiqulov yetib keldi va ikkinchi sozanda (Yeldavoy aka)ning qo'lidan skripkani olib, Yunusqoriga jo'rnavozlik qila boshladi. Shunda Yunusqori aka hayron bo'lib, «i-ya, Yeldovoy, yaxshi chaladigan bo'lib qolibsanimi !?» dedi. Kuy avjiga kelganda esa, G'ulomjon aka ham kuyni avj pardadan chalishni boshladilar. Uning bunday avj pardalarda mahorat ila kamon tortayotganligini eshitgan Yunusqori «Ha, G'ulomjon aka, xush kelibsiz ! Siz ekanligingizni sezgan edik ...» deb, kinoya qildilar.

Yu.Yusupov «Ushshoq», «Bayot I», «Devona kelubdur», «Otmagay tong» va boshqa shu kabi juda ko'plab mumtoz asarlarning har tomonlama mohir ijrochisi edi. Umuman olganda, Yunusqori Yusupov xalqimizning sevikli xonanda va sozandasidir!

### **O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist H.Isroilova:**

San'at insondan «katta» qalb va fidoyilikni talab etadi. Men, shu kabi qalb ustoz Yunusqori Yusupovda bor bo'lganligiga shubha qilmayman. U ijro etgan «Ushshoq», «Chorgoh», «Bayot I», «Kelibdur» kabi asarlar uning qalbidan mavj urar edi.

Yu. Yusupov juda ko'plab shogirdlarga ega bo'lgan, ularga izzat va ikrom ko'rsatadigan va to'g'ri maslahatlarini ayamaydigan samimiy va dono ustoz edilar.

Yu.Yusupov haqidagi quyidagi voqeani eshitganimda, butun vujudim titrab ketgan edi ...

Yangi ansambl tomonidan ijro etiladigan asarlarni televideniya tasmasiga yozib olinayotgan bir payt, mutasaddilardan kimdir Yu.Yusupovni ko'zi ojizligi sababli bir chekkaroq joyga o'tqizib, shu yerda jo'r bo'lishlarini aytgan ekan. Shunda, ustoz ko'zlaridan duv-duv yosh oqib yig'lagan ekanlar ...

Ustoz Yu. Yusupov ijrosidagi asarlarni tinglar ekanman, ulardagi nido, ichki bir dard, ayta olmayotgan so'z va kechinmalarni sezish bilan birga, farzandlarini bir bor bo'lsa-da, ko'rish orzusi ota tomonidan kuylanayotgandek tuyuladi. Ha, Yu.Yusupov asarlarni shunchaki ijro etmas edilar, balki asarlari bilan yashar edilar.

Yunusqori Yusupovdek san'atkor yuz yilda bir keladi!

**O'zbekiston Xalq hofizlari Ismoiljon va Isroiljon Vahobovlar «Buyuk san'atkor, sehrli ovoz sohibi, ustoz Yunusqori Yusupov haqida o'ylarimiz» sarlavhasi ila quyidagilarni bitganlar:**

Go'zal O'zbekistonimizda millatimiz ma'naviyati va madaniyati rivojiga o'zining barakali ulushini qo'shgan va ajdodlarimiz an'analarini davom ettirib, kelajak avlodlarga meros qoldirgan ko'plab iste'dodli san'atkorlar yetishib chiqqan. Ana shunday ulug' insonlardan biri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, sozanda va bastakor, sohir nafas hofiz Yunusqori Yusupov edi. Yu. Yusupov muxlislar qalbidan munosib joy olgan, ochiq ko'ngil, dilkash, o'ziga xos ijro uslubiga va yoqimli *bariton* ovoziga ega xonanda bo'lgan. Shu bilan birga, u musiqa ilmining sir-asrorlarini puxta egallagan va chapaqay bo'lishiga qaramasdan, g'ijjak sozini mohirona ijro etadigan sozanda ham edi.

Qo'lidagi soz sadolari bilan o'z ovozi hamohang qilib, yurakdan xonish etadigan hofizning ijro uslubi va ovozi O'zbekiston xalq artisti, hassos bastakor va hofiz, akademik Yunus Rajabiyning ovozigacha o'xshar edi. Hatto, ba'zi tinglovchi muxlislar qaysi birlari ijro qilayotganlarini farqlay olmas edilar. Bunga Yunusqori Yusupovning ustoz Yunus Rajabiy san'atiga bo'lgan yuksak ehtiromi va muxlislik munosabatlari deb qarash mumkin.

Yunusqori aka maqomlarni jon dildan sevib ijro etar va o'z shogirdlariga ham «Shashmaqom» tarkibidagi sho'balar yoki Toshkent- Farg'onada mashhur bo'lgan mumtoz namunalardan o'rgatar edilar. Bu borada Yu.Yusupovning xonanda va sozandalarni yig'ib, maqomchilar ansamblini tuzganlari va bu ansambl uzoq yillar davomida xalqimizga xizmat qilganligini ham alohida ta'kidlash joiz.

Akademik Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansamblidagi mehnat faoliyatimizda Yunusqori Yusupovga bog'liq ko'plab voqealarni eshitganmiz. Masalan, kunlardan bir kuni Yunusqori akani O'zbekiston radiosining ovoz yozish studiyasiga taklif etishadi. Ustoz ijrosidagi asarlarni yozishdan avval badiiy kengash ko'rigidan o'tish zarur edi. Radioning badiiy kengash a'zolari bastakorlar, shoirlar, yozuvchilar, olimlar, taniqli san'at namoyandalaridan iborat bo'lib, ularning orasida O'zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy ham bor edi. Magnit tasmasiga yozish uchun tayyorlangan dasturda Yunus Rajabiy ijro etgan «Ushshoq» va «Bayot I» kabi mumtoz navolar ham o'rin olgan edi. Badiiy kengash a'zolari Yunusqori Yusupovning ijrosidagi asarlarni maroq bilan tinglashadi. Yunus Rajabiy Yunusqorining mahorat bilan kuylaganini ko'rib, iste'dodiga tan beradi. Badiiy kengash muhokamasida Yunus Rajabiy bu hofiz repertuaridagi barcha ijrolarni shu bugunning o'zidayoq yozib olish kerakligini aytadi. Ovoz yozish jarayonida ustozimiz Yunus Rajabiy qo'lga dutor sozini olib, Yu.Yusupovga sozanda sifatida yordam beradi. Shunday qilib, «Ushshoq» va «Bayot I» hamda boshqa zamonaviy taronalar Yunus Rajabiy rahnamoligida magnit tasmlariga muhrlanadi. Ushbu hayotiy voqeani san'atning saodati yo'lidagi ulug'vorlik, insoniylik va ikki buyuk san'atkorlar o'rtasidagi hurmat va ehtiromning ibratli namunasi deb hisoblaymiz.

Biz ham Yu.Yusupov bilan xizmat safarlari tufayli bayram tantanalari yoki to'y hashamlar, ko'rik tanlovlarda diydorlashib, ustozning duolarini olish baxtiga muyassar bo'lganmiz. Yunusqori aka bilan har gal uchrashganimizda bizning hamnafaslikdagi ijodiy faoliyatimizga yaxshi munosabatda ekanligini bildirib, biz uchun bastalagan yangi ashulalari bor ekanligini ta'kidlar edilar. Shuningdek, bizga mumtoz maqom ijrochiligining hali aytilmagan variantlarini o'rgatish rejalari ham mavjudligini aytib, bizni behad xushnud etardilar. Lekin, ming afsuski, ustozning bevaqt vafoti ushbu ezgu niyatlarining amalga oshishiga yo'l bermadi. Yunus aka tarannum etgan «Bayot I», «Ushshoq», «Guljamol», «Kelibdur» kabi xalqimiz sevib tinglaydigan taronalarni biz ham shu kungacha jo'rnavoqlikda kuylab kelamiz.

Hofiz «Oltin meros» hisoblangan «Shashmaqom» san'atiga mehr qo'yib uning sho'balaridan yoqimli namunalar talqin etdi va Andijon mumtoz an'anaviy ijrochiligi rivojlanishi uchun barakali hissa qo'shishga erishdi. Uning «Yaxshi», «Sozandalar madhi», «Guljamol», «Savti ushshoq», «Qashqarcha» kabi ijro namunalari doimo radio to'lqinlari orqali yangrab kelmoqda. Yunusqori aka Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur kabi mumtoz shoirlarimiz g'azallariga bastalangan maqomlarni jozibali nolalari bilan ijro etadigan o'ktam ovoz sohibi edilar. U ko'proq zamonaviy taronalarni Habibiy, Charxiy, Vosit Sa'dulla kabi taniqli shoirlarning she'rlaridan foydalanib kuylardilar. Ustoz o'z xonishlarida vafo, sadoqat, yaxshilik, halollik, muhabbat, mehnatsevarlik, poklik, mardlik va tinchlik mavzularini aks ettiradi.



Kuylaganda ham zo'r ishtiyiq, yoqimli musiqiy bezaklar va mungli nolalar ila qo'lidagi sehrli sozi hamohangligida xonish qilib, shinavandalarga farahbaxshlik in'om etardilar.

Musiqa san'ati odamzod uchun ruhiy ozuqa bo'lib, uni yashashga, kurashga, mehnat va sadoqat bilan halollikka undaydigan omil bo'lishi ham mumkin. Xuddi shu ma'noda ustozimiz Yunus qori Yusupovning nomlarini ham alohida zikr etish joiz. Yurtimiz millatimiz manfaati yo'lida sharaflari va xayrli mehnat qilib nom qozongan, lahnparдоз mug'anniy hofiz Yunusqori Yusupov nomi tarix zarvaraqlaridan munosib o'rin egalladi. Uning o'ktam va go'zal ovozi ila kuylangan asarlar muxlislar qalbini xushnud etishda davom etadi.

**Habibullo Karimov esa Yunusqori Yusupovga atab quyidagi she'riy satrlarini izhor etadi:**

Tongdagi xonishlaringiz bulbulning rashkin etdi bos,  
Uyg'onib har bitta yaproq, raqs aylamishdir qo'bi-soz.  
Gohi sho'x, gohida o'tli, ohanglaringiz subhi dam,  
Rom etib, olamni burkab, qalblarga berdiki, pardoz.  
Qo'lda soz sayraydi yangroq, jo'r bo'lib ovozingiz,  
Har ko'ngul, tahsin o'qib, izhor etarlar dil roz.  
Moziyning jabrida yig'lab, o'tgan munaqqidlar so'zin,  
Baxtiyor davronda kuylab, el ichra bo'ldingiz e'zoz.  
Goh Navoiy, gohi Lutfiy lutfining har bandiga,  
Turfa ohang baxsh etib, kuyiga berdingiz libos.  
«Ushshoq»-u, «Gulyor», «Iroq», mungli munojot qilsangiz,  
Tebratar qalb torini, vo ajab oromi soz.  
Men Habib noyob ovozingiz siridin lolman,  
Bu sahar qo'lda qalam zavq olib bitdim bayoz.

**Shoir G'ayrat Asranqulov Yu.Yusupov haqida xotirlab, quyidagi she'riy baytlarni ijod etgan.**

Kamonning torlari uzilib ketdi,  
Majnuntol jussasi egildi yerga.  
Tentak soy boshini toshlarga urdi,  
Bulbullar bu tongda qochdilar qirga.  
Nayning yurak bag'ri ming pora bo'ldi,  
Dutorlar o'zlarin osdi devorga.  
Doyra sirg'alari titraydi dir-dir,  
Inchkirib yig'laydi g'ijjak bechora.  
San'at yetim qoldi, kuy sag'ir bo'ldi,  
Yuraklar ezildi, ho'ng bo'ldi.  
Paxtobod osmonida so'ndi bir yulduz,  
Ming yilda bir kelar, hazrati Yunus.

\* \* \*

**Bob yuzasidan savol va topshiriqlar.**

1. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Yunusqori Yusupov ijrochilik san'atining qaysi mintaqaviy hududiga aloqador edi?
2. Yunusqori Yusupovning hayoti va yoshlik chog'laridagi bilim olish bosqichlari haqida toxtalib o'ting.
3. Yunusqori Yusupovning ilk ustozlari kimlar bo'lgan?

4. Yunusqori Yusupov — mohir sozanda mavzuida bahs yuriting.
5. Yunusqori Yusupov xonandalik faoliyatining gullab-yashnashligida hal etuvchi ahamiyat kasb etgan voqea haqida to'xtalib o'ting va u qanday asarlar ijro etganligini ham so'zlang.
6. Yunusqori Yusupov Yunus Rajabiy bilan ilk marotaba uchrashganda qaysi asarlarni ijro etgan edi ?
7. Yunusqori Yusupovning bastakorlik faoliyatiga ta'rif bering.
8. «Yu. Yusupov – yetuk san'atkorlar e'tirofida» mazuida suhbat quring.



### III BOB. YU.YUSUPOV IJRO USLUBINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

#### III 1. Ustozlar uslubini tadqiq etish samaralari

Musiqiy merosimizning bugungi kunimizgacha yetib kelishida ajdodlarimiz «ko'prik» vazifasini o'tash bilan birga, o'zlarining ijodlari va ijro uslublari bilan namuna bo'lib kelganlar. Ustoz-shogird an'anasiga asoslangan milliy ijrochilik san'ati zamonlar osha rivojlanib kelgan va ayniqsa hozirgi davrimizga kelib, o'zining yuksak badiiy san'at ekanligini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy jarayonda ham an'analar asosida yangicha talqinlar, o'ziga xos yutuqlar bilan boyitilgan ijod namunalari yaratish va ijro uslublarni tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ustoz-shogird an'anasi asosida shakllanib rivojlangan milliy musiqamiz o'zida rang-barang ijro uslublari va yo'llari, aniqrog'i O'zbekistonning turli hududlariga oid ijro uslublarni mujassam etgan. Ularning asosi bir bo'lsada, ijro talqinining o'ziga xosligi bilan bir biridan ajralib turadi. Bu ijrochilik san'atining cholg'ular tarkibi, sozandalik va xonandalik amaliyoti hamda vohalarga xos yo'nalishda rivojlanib kelganligi bilan bog'liqdir. Ayni paytga kelib bunday omil har bir cholg'u ijrochiligi va xonandalikda o'z aksini topgan. G'ijjak cholg'u sozi ijrochiligi ham bundan mustasno emas.

XX asr o'zbek milliy musiqa san'atining tarixiy zarvaraqlaridan munosib o'rin egallagan g'ijjak ijrochiligi san'ati ustalari: To'xtasin Jalilov, Usta Ro'zimatxon Isaboyev, Mamataziz Niyozov, Muxtorjon Murtazoyev, Nabijon Hasanov, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, Doni Zokirov, Sayfi Jalil, Salohiddin To'xtasinov, Yunusqori Yusupov, Karimjon Mansurov, Ollonazar Hasanov hamda bugungi kunda o'zlarining yuksak ijrochilik san'atlari va sermahsul ijodlari bilan yosh avlodga namuna bo'lib kelayotgan G'ulomjon Hojiqulov, Qahramon Komilov, O'lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Tursunboy Jo'raev, Ziyovuddin Qosimov, Ahmadjon Dadaev, Muhammadjon Maraximov, Mirhosil Azizov, Sharifjon Mamajonov, Murodjon Norqo'ziyev, O'tkir Qodirov, Abdulla Shomag'rupov, Salohiddin Azizboev, Qahramon Umarov, Ma'rufjon Xalilov singari ustoz san'atkorlarning g'ijjak sozi ijrochiligidagi yaratgan uslublari vohaviy ijrochilik maktablarini rivojlantirishdagi salmoqli hissalarini ekanligini alohida qayd etishimiz lozim.

Mazkur san'atkorlarning ijro uslublarni shu soha bo'yicha ta'lim olayotgan yosh avlodga o'rgatish – bizning oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Ushbu masalaning ikki muhim jihati mavjud:

**Birinchisi**, bir qator g'ijjakchi sozandalarning ijro uslubida umumiy xususiyatlar seziladi va bu borada tahliliy ishlar va ilmiy xulosalarni amalga oshirish lozim. Masalan, Komiljon Jabborovning ijro uslubi Farg'ona-Toshkent g'ijjak ijrochiligidagi keng tarqalgan bo'lib, bu an'anani G'ulomjon Hojiqulov, Yunusqori Yusupov, Abduxoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov, Axmadjon Dadaev, Ziyovuddin Qosimov, Ravshan va Ulug'bek Hojiqulovlar hamda O'tkir Qodirov kabi bir qator g'ijjakchi sozandalar tomonidan davom ettirilib kelinmoqda. Ushbu hodisani ilmiy-

nazariy asoslarini o'rganish, tadqiq etish va asosiysi ta'lim jarayoniga tadbiiq etish juda dolzarb masaladir.

**Ikkinchidan**, ayrim ma'lum va mashhur g'ijjakchilarimizning ijro uslublari unutilib bormoqda. Masalan, To'xtasin Jalilov, G'anijon Toshmatov va Mamataziz Niyozovlar ijro maktablarining deyarli unutilib borayotganligi kishini qayg'uga soladi. Ustoz g'ijjakchilarning ijrochilik uslublarni qayta tiklab rivojlantirish, targ'ib qilish va yo'lga qo'yish oldinda turgan yana bir o'ta muhim vazifalardan biridir.

**Bizningcha, ushbu muammolarni hal etishda bir qancha ishlarni amalga oshirmoq zarur:**

Eng avvalo o'ziga xos ijro uslubiga ega bo'lgan ustoz g'ijjakchilarning ijrochilik yo'llarini mutaxassislar imkon qadar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishlari zarurligi va uning negizida yoziladigan darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma va boshqa ilmiy manbalarda batafsil yoritib berishligi;

Ushbu yozilajak ilmiy manbalar asosida musiqiy ta'lim muassasalarining barcha bosqichlarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarga ustoz g'ijjakchilarning ijro uslublarni o'rgatish;

Ustozlar ijrosidagi asarlarning nota matnlarini tuzish. Bunda ularning uslubiga xos xususiyatlar, ijro bezaklari, ijroviy-texnik jihatlar, talqin masalasi va shu kabi boshqa jihatlarni aniq ifoda etish zarur;

Yosh g'ijjakchi sozandalarga ta'lim berishda ustozona uslublardan keng va unumli foydalanish;

O'quvchi va talabalarining ijro dasturlarini xilma-xil uslubdagi asarlardan namunalar kiritgan holda tuzishga alohida e'tibor qaratish;

**Agar yuqorida sanab o'tilgan ishlarni amalga oshirsak, juda ko'plab ijobiy natijalarni qo'lga kiritamiz. Jumladan:**

O'quvchi-talabalarimiz an'analar vorisiyligidan bahramand bo'ladilar va ayniqsa, ularning hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamon va «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta'sirlari doirasiga tushib qolishning oldi olinadi. Chunki, boshqa xalqlarning ijroviy xususiyatlari milliy musiqamizga ham o'ziga xos ta'sir o'tkazishi hech kimga sir emas. Bu bilan boshqa xalqlarning san'atini qoralamoqchi emasmiz, balki, o'zimizning nodir va mo'tabar musiqqa san'atimizni turli xil yaxshi-yomon «shamollardan» asrash ko'zda tutilmoqda.

Dars berish jarayonida ta'lim oluvchining ijro imkoniyatlari va xususiyatlarini ustozlar ijro uslubi bilan qiyosiy solishtirish va tahlil qilish orqali ijro dasturi tuzilsa, yangi yo'nalishlar yaratish imkoniyatlari vujudga keladi. Ya'ni, ta'lim oluvchiga ustozlarning ijro uslubini ham hissiy, ham ijroviy, ham psixologik nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilishga o'rgatish, uning shaxsiy (indivudual) uslubini yuzaga keltirishida asos vazifasini o'taydi;

Shuningdek, ijrochining ijro uslublari ustozlarning ijro xususiyatlari aniqlangan holda, ijro dasturini ular tanlagan yoki ishtiyoq bildirgan uslublarga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Natijada, g'ijjak ijrochiligidagi uslublar davomiyiligini ta'minlash bilan birga, bugungi kun ruhi bilan sug'orilgan rang-barang yangi uslublarni paydo bo'lishiga zamin yaratiladi.

\* \* \*

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, g'ijjak ijrochiligida o'zining uslubi bilan katta e'tibor qozongan sozanda Yunusqori Yusupovning ijodini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan baholi qudrat tadqiq etdik. Yunusqori Yusupovning o'ziga xos ijroviy uslubini har tomonlama yoritish – bugungi musiqiy ilmimizning rivoji uchun foydali, qolaversa milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish yo'lidagi munosib qadam desak, adashmagan bo'lamiz. Biroq, Yu.Yusupovning ijro uslubi



va undagi o'ziga xosliklar haqida so'z yuritishdan oldin, «uslub» tushunchasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

### III. 2. «Uslub» tushunchasining tavsifi

Rus va boshqa tillarda qo'llaniluvchi *stil* so'zi o'zbek tiliga «uslub» deya tarjima qilinadi. Mazkur tushuncha lotin tilidagi *stilus* so'zidan olingan. Ushbu *stilus* so'zi muamlangan taxtaga yozish uchun ishlatiladigan tayoqchani bildiradi. Ma'lumki, yozuvning qanday sifatlar kasb etishi, shu yozuvni yozlishiga sabab bo'lgan vosita – tayoqcha (qalam yoki biror bir yozuv asbobi)ga ham bog'liq. Shu ma'noga ko'ra, turli soha vakillarining «yozuvlari» ya'ni, ijodiy mahsullari, faoliyati va erishadigan natijalari ularning «yozadigan tayoqchalariga», ya'ni ish yuritish tarzlari va faoliyatining qay yo'sindaligiga bog'liq. Demak, har bir soha vakilining ish yuritish tarzi va faoliyatining qay yo'sindaliligi «**stilus**» – «**uslub**» tushunchasi bilan tavsiflanar ekan.

Uslub haqida ob'yektiv va sub'yektiv tarzda fikr yuritish mumkin. U ob'yektiv tarzda ma'lum kompozitsiya turini yoki muayyan ijrochilikni (mas, maqom, cherkov, orkestr, opera, kamer, kvartet, fortepiano, organ uslubi) sub'yektiv tarzda esa ma'lum bir kichik jabhani (mas, yakka bir shaxs uslubi)ni anglatadi.

O'zbek milliy musiqasida ham ijrochilik uslublari juda ham rang-barang bo'lishi bilan birga, umumiy xususiyatlarni o'zida jamlagan **ustuvor uslubiy yo'nalishlarga** ham birlashadi. Ha, xalqimiz orasida o'zlarining ijodiy faoliyatini olib borayotgan minglab san'atkorlar faoliyat yuritib kelganlar va yuritmoqdalar. Ularning ijrochilik jabhasida o'zbek musiqasining umumiy va mushtarak xususiyatlari aks etishi bilan birga, har bir hududning o'ziga xos lokallik xususiyatlari ham namoyon bo'ladi. Aynan shu yerda uslublarning turlari haqida mulohaza yuritsak.

Shu o'rinda «**umummintaqaviy ijrochilik uslubi**», ma'lum bir «**voha uslubi**», «**mahalliy uslub**» va nihoyat «**shaxsiy**» («**individaul uslub**») haqida so'z yuritish mumkin. Ko'p hollarda uzoq yillar davomida sinovdan o'tib, o'z qiymatini yo'qotmay kelayotgan va bir necha avlod ijrochilari tomonidan amalda bo'lib kelayotgan umumiy uslub tushunchasini ifodalash uchun «maktab» iborasi qo'llaniladi.

**O'zbekiston g'ijjak ijrochiligining o'ziga xos uslublari, asosan, Andijon, Buxoro va Xorazm an'anaviy maktablari orqali namoyon bo'lgan.**<sup>10</sup> Mazkur iqtibos qandaydir ma'noda to'g'ridir. Biroq, O'zbekistonda g'ijjak ijrochilik maktabi haqidagi bor haqiqatni o'zida aks ettira olmaydi. Chunki, bu fikr juda ham umumiy yoki shartli ravishda aytilgan. Aslida, «... **Andijon, Buxoro va Xorazm an'anaviy maktablari**»ning har biri yana ma'lum bir maktablarga bo'linib ketishi mumkin. Aniqrog'i, umumiy uslub – maktab ko'lamini belgilashda siyosiy-geografik chegaralarga tayanib ish tutish har doim ham muvaffaqiyatli chiqavermaydi. Masalan, bir hududining ma'lum bir qismi va ikkinchi bir mintaqaning muayyan bir bo'lagi yagona maktabga xos ijrochilikni kasb etgan bo'lishi ham mumkin. Demak, ijrochilik uslublarni tasnif etishda va hududiy maktablarni belgilashda juda ham ehtiyot bo'lish va chuqur ilmiy izlanishlarga tayangan holdagina xulosaviy fikr aytish lozim.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yakka shaxslarning ijroviy uslublari birlashib, muayyan voha va umum mintaqaviy ijrochilik uslublari asos bo'ladi. Masalan, Farg'ona-Toshkent uslubiga xos ijrochilik maktabining namoyondalari qatorida,

<sup>10</sup> Rasulov O'. «G'ijjak» // O'zME 11-jild. Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 231–232 betlar.

Andijondan: To'xtasin Jalilov, Sobirjon Siddiqov, Mo'minjon Jabborov, Mamataziz Niyozov, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, G'ulomjon Hojiqulov, Yunusqori Yusupovlar; Namangandan: Muhiddinhoji Najmiddinov, Usta Ro'zimatxon Isaboyev, Karimjon Mansurov, Ziyovuddin Shamsiddinov, Abdug'ofur Niyozaliev; Farg'onadan: Muxtorjon Murtazoyev, Rafiqjon Ahmedov, Abduhoshim Ismoilov, Toshkentdan Imomjon Ikromov, Ilhom To'rayev, Zokirjon Sodiqov, Yoqub buva, Akmalxon So'fixonov, Sunnat Samadov, G'ulomjon Mirzaev, Kommunar Komilov kabi g'ijjakchilarni keltirib o'tish mumkin.

### III.3. Yu.Yusupovning ijro uslubi

Andijon g'ijjak ijrochilik uslubining umum ko'rinishi ham yakka shaxs (san'atkor)larning o'ziga xos ijro uslublari bilan belgilanadi. Yakka shaxs (ijodkor)ning uslubi haqida gap ketar ekan, *uchlik mezon* asosida mulohaza yuritish joiz. Bular: **an'anaviylik**, **novatorlik** va **indivuduallik** mezonlaridir. Mazkur mezonlarning birligi, ularning bir-biri bilan munosabatlari ijodkorning, xususan, Yu. Yusupovning uslubini belgilab beradi.

**An'anaviylik** borasida Yu. Yusupov g'ijjak cholg'usidagi yetuk va mohir ijrochilarning munosib «merosxo'ri». U o'zining tirishqoqligi va mehnatsevarligi tufayli ustozlarning an'alarini puxta o'zlashtira oldi va ularning yo'lini davom ettirib keldi. G'ijjak cholg'usi bo'yicha Paxtaobodlik san'atkor Abdumalikxon Yunusovdan olingan fundamental saboqlar va o'ziga xos ijro uslubi Yu. Yusupov tomonidan yanada rivojlantirildi va sayqal berildi. Yunusqori undan g'ijjakning sozlanishi, ijro etish mezonlari va umuman professional ijrochilik jabhasi bo'yicha ko'pgina bilimlar olishga muyassar bo'ladi. Andijon maktabi namoyandalari: Sobirjon Siddiqov, To'xtasin Jalilov, Mamataziz Niyozov, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, G'ulomjon Hojiqulov, G'ulomjon Ro'ziboyev, shuningdek, Paxtaobodlik Usta Hojimat tanburchi, Ergash g'ijjakchi, Orifjon Qodirov, Abdugarim Rasulov, Toshxo'ja Maxsum va Shavkatjon Yusupov kabi ustoz san'atkorlar va ular yaratgan ijro maktabi an'alar vorisiyligi o'laroq Yu. Yusupov faoliyatiga ham o'zining salmoqli ta'sirini o'tkazgan.

Yu. Yusupov g'ijjak cholg'usining ijroviy texnik jihatlarini chuqur o'rganib, uning ifodaviy imkoniyatlari, nozik qirralari, ta'bir joiz bo'lsa hali kashf etilmagan tomonlarini ham o'zining yuksak ijro mahorati misolida ko'rsatib berdi. Uning ijrolarini tinglar ekanmiz, bir qancha diqqatni jalb etuvchi jihatlar, shuningdek g'ijjak ijrochilik san'atiga oid **yangiliklar** mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Ha, Yu. Yusupov milliy ijrochiligimizga o'zining betakror ijrochilik mahorati bilan yangiliklar olib kirdi. U g'ijjak cholg'usida surnay yo'llarini nihoyatda yuksak mahorat bilan ijro etgan. Surnay cholg'usida qo'llaniladigan ijro bezaklaridan mohirona foydalangan holda, ayrim tovushlarni qo'sh torda ijro etib, aynan surnay ovozidek sadolar hosil qila olgan. Ma'lumki, mumtoz ashulalarning cholg'u variantlarini ijro etish – milliy cholg'u ijrochiligimizga xos jihatdir. Shu bois Yu. Yusupov ham mazkur tamoilga murojaat etib, bir qancha mumtoz ashula namunalarining cholg'u variantlarini ijro etgan. Ular shunisi bilan e'tiborliki, Yu. Yusupov katta ashula janri, umuman hofizlikda qo'llaniladigan ijro bezaklari, dinamika, hatto nafasni ishlatish qonun-qoidalari kabi nozik jihatlarni ham g'ijjak talqinida aks ettira olgan.

Yuqorida aytilgan fikrlarga musiqiy yozuvlar «Oltin fondi» xazinasidan joy olgan surnay yo'llaridan «Surnay Dashtnavosi» hamda «Guluzorim qani» katta ashulasi yaqqol misol bo'la oladi.



# SURNAY DASHTNAVOSI

Erkin ijro (doyra usulisiz)

1-qism

Surnay cholg'u yo'llaridan  
Y.Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan

Musical score for Surnay Dashtnavosi, 1st part. The score consists of ten staves of music in a single system. The key signature has one flat (B-flat), and the time signature is 2/4. The music features a variety of rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and rests. There are several trills and ornaments indicated by wavy lines above notes. A 'rit.' (ritardando) marking is present above the fifth staff. The piece concludes with a double bar line at the end of the tenth staff.



Jozibador

2-qism

Musical notation for the first system of 'Jozibador', 2-qism. It consists of a treble clef staff and a bass clef staff, both in 3/4 time. The treble staff contains a melody with quarter and eighth notes. The bass staff contains a bass line with eighth-note patterns and rests.

Musical notation for the second system of 'Jozibador', 2-qism. It is a single treble clef staff with a melody featuring quarter and eighth notes, some with accidentals.

Musical notation for the third system of 'Jozibador', 2-qism. It is a single treble clef staff with a melody featuring quarter and eighth notes, including a triplet of eighth notes.

Musical notation for the fourth system of 'Jozibador', 2-qism. It is a single treble clef staff with a melody featuring quarter and eighth notes, ending with a double bar line and repeat dots.

Musical notation for the fifth system of 'Jozibador', 2-qism. It is a single treble clef staff with a melody featuring quarter and eighth notes, including trills marked 'tr'.

Musical notation for the sixth system of 'Jozibador', 2-qism. It is a single treble clef staff with a melody featuring quarter and eighth notes, including trills marked 'tr'.


Musical notation for the seventh system of 'Jozibador', 2-qism. It is a single treble clef staff with a melody featuring quarter and eighth notes, including trills marked 'tr'.

Musical notation for the eighth system of 'Jozibador', 2-qism. It is a single treble clef staff with a melody featuring quarter and eighth notes, including trills marked 'tr'.

Musical notation for the ninth system of 'Jozibador', 2-qism. It is a single treble clef staff with a melody featuring quarter and eighth notes, including a triplet of eighth notes.

Musical notation for the tenth system of 'Jozibador', 2-qism. It is a single treble clef staff with a melody featuring quarter and eighth notes, ending with a double bar line and repeat dots.





Ushbu musiqiy misollar va mazkur o'quv qo'llanmadan joy olgan boshqa asarlar ham Yu. Yusupov ijro uslubining o'ziga xosliklari, undagi ijroviy bezaklar, turli asarlarni o'ziga xos tarzda sayqallashtirish kabilar o'quvchiga muayyan imkoniyatlar yaratadi hamda g'ijjak ijrochiligi va xonandalikning asosiy ijro sirlarini anglash uchun xizmat qilishi mumkin.

G'ijjakchi ustozlarning aytishlaricha, g'ijjak ijrochiligida cholg'uchining kamonni ravon, silliq va baquvvat tortishi hamda tordan torga sezilarsiz o'tib, ijro etishi sozandaning mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Alaxusus, Yu. Yusupovning ham g'ijjak kamoni tortish yo'sini nihoyatda ravon va baquvvatligi bilan xarakterlanib turadi. Buni uning ijro yozuvlaridan sezib olish qiyin emas.

Ma'lumki, Andijonda uyg'ur millatiga mansub ko'plab san'atkorlar ijod etganlar. Jumladan, G'.Toshmatov, M.Niyozov kabilar. Yu.Yusupov xonandalik bo'yicha uyg'ur millatiga mansub ustози Qodir Oxundan tahsil olgan. Shuning natijasi o'laroq, uyg'urcha ijro bezaklaridan ma'lum o'rinlarda ustalik bilan foydalangan va uyg'urcha qo'shiqlarni ham maromiga yetkazib ijro etgan.

Yu.Yusupovning ijrochilik san'atiga xos xususiyat va qirralar boshqa sozandalarning ham ijrochiligiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ustoz-shogird an'anasi asosida shakllanib, rivojlangan sozandalik san'atining ijrochilik asosi bir bo'lsada, ijro talqinining o'ziga xosligi va xilma-xilligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Har bir sozanda ijro jarayonida o'ng qo'l harakatlaridan mohirona foydalanishi va chap qo'lda esa turfa ijro bezaklarini yuksak mahorat bilan qo'llashi natijasida o'ziga xos bo'lgan ijrochilik uslublari shakllanadi. Masalan, To'xtasin Jalilov va Mamataziz Niyozov ijrosida chap qo'lda rang-barang «mayda to'lqinlatish» bezaklari ko'p qo'llanilishi kuzatilsa, G'anijon Toshmatov ijrosida esa chap qo'l

barmoqlari yordamida asosiy tovushga ikkinchi barmoq bilan sayqal berish, mayda forshlaglar, kamonni ravon harakatlari orqali «surnay yo'li»ga o'xshatishlik ijroda o'z aksini topadi. To'xtasin Jalilov va Mamataziz Niyozovlar ijrolarida mayda to'lqinlatib, titroqi ohang hosil qilib chalish uslubi mavjudligiga sabab, o'sha davrning ko'pchilik ashulachilari ijrolarida ham ovozda «mayda to'lqinlatish» ijro bezagini qo'llash uslubi keng tarqalganligidadir. Chunki hofizlarning bu kabi ijro uslublari sozandalar ijrosiga ham ta'sir etganligi tabiiy holdir. G'anijon Toshmatov ijrosida uyg'urcha pardalar va ijro bezaklari ham mohirona qo'llanilganini guvohi bo'lamiz. Buning sababi esa Andijonda uyg'ur millatiga mansub ko'plab san'atkorlar ijod etganlar, jumladan, G'.Toshmatov, M.Niyozov kabilar.

Yu. Yusupovning ijro uslubiga xos jihatlar bo'yicha keltirilgan nazariy ma'lumotlar va asarlar tahliliga tayangan holda bir qancha xulosalarni chiqarish mumkin. Demak, Yu. Yusupovning ijro uslubi xususiyatlari quyidagicha:

- a) mayda urg'u (aksent)lar, kuy tuzilmalarini uzmasdan chalish yo'llari;
- b) o'ziga xos bezaklar;
- c) asarlarni nozik did bilan sayqallashtirish;
- d) g'ijjak cholg'usida surnay yo'llarini nihoyatda yuksak mahorat bilan ijro etganligi;
- e) surnay cholg'usiga xos ijroviy-texnik jihatlarni g'ijjak ijrochiligida ham qo'llay olish, surnayga xos qochirimlar singdirilganligi;
- f) tovushlarni qo'sh torda ijro etib, aynan surnay ovozidek tovush hosil qilish;
- g) Ijro davomida kamoning tordan-torga sezilmas darajada silliq va ravon tarzda o'tishligi;
- h) Yu.Yusupovning kvartaga sozlangan g'ijjak sozi ijrolarini tinglar ekanmiz, unda bir tordagi uchinchi barmoq bilan hosil qilinadigan tovush bilan keyingi ochiq torni birga ijro etish natijasida surnay ohanggiga xos xususiyatlar yuzaga chiqayotganligining guvohi bo'lamiz.
- i) Ashula yo'llariga xos har bir xususiyatni g'ijjak cholg'usida aks ettira olish. Xususan, xonandaning nafas ishlatish jarayonlari, talaffuz jarayoni va b. Masalan, Jo'raxon Sultonovning «Guluzorim qani» katta ashulasi Yu.Yusupov tomonidan cholg'u variantida g'ijjak cholg'usida ijro etilgan. Mazkur ijroda Jaraxon Sultonov asarni qanday talqin qilgan bo'lsa, Yu.Yusupov ham u ijroning eng nozik jihatlarigacha g'ijjak cholg'usi orqali ko'rsatib bera olgan.

### **Bob yuzasidan savol va topshiriqlar.**

1. XX asr o'zbek milliy musiqa san'ati tarixidan munosib o'rin egallagan g'ijjak ijrochiligi san'ati ustalarini nomma-nom sanab o'ting.
2. Ustozlar uslubini tadqiq etish orqali qanday samaralarga erishiladi ?
3. «Uslub» tushunchasiga tar'rif bering.
4. O'zbek musiqasining ijrochilik (xonandalik va sozandalik) sohasiga oid uslublar haqida so'z yuriting.
5. «Andijon, Buxoro va Xorazm an'anaviy maktablari» deganda nimani tushunasiz ?
6. Uslubiyotdagi «an'anaviylik» tushunchasiga izoh bering.
7. Uslubiyotning «novatorlik» va «indivuduallik» mezonlari haqida so'zlang.
8. Yuqoridagi tushunchalar asosida Yu.Yusupovning ijro uslubiga xos jihatlarni sanang.



#### IV BOB. O'QUV-USLUBIY TAVSIYALAR

Musiqiy ijro mahoratlarni oshirishda o'rganuvchidan eng avvalo, iste'dod talab etiladi. Aynan shuning uchun ham musiqiy ta'lim muassasalarining quyi bosqichlari (musiqa maktablari, kasb-hunar kollejlari, ixtisoslashtirilgan akademik litseylar va b.)ga tashrif buyurgan bo'lajak musiqachilarning musiqaga bo'lgan tabiiy moyilliklari, tug'ma iste'dodlari va shu kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur iste'dod esa ijrochilik amaliyotlarini o'zlashtirish va bilim olish jarayonida takomillashib boradi. Shuningdek, bu murakkab jarayonda o'quvchining xotirasi, ritmi his etish ko'nikmasi, ichki eshitish qobiliyati hamda badiiy didi ham shakllana boradi.

Xususan, g'ijjak ijrochiligida ham yuqorida qayd etilgan ta'lim jarayonlari o'ziga xos murakkablikni kasb etgan holda rivojlanadi. Bunda bir necha jihatlar mavjud bo'lib, ularning yuqori saviyada yuzaga chiqishi ham o'qituvchilar, ham o'quvchilarga birdek bog'liqdir. Bular:

*G'ijjak cholg'usida sof tovushlar hosil qilish;*

*Milliy ijrochilik yo'nalishini o'zlashtirish;*

*Musiqiy asarlar ijrosi davomida o'ziga xos ijroviy bezaklarni qo'llay olish;*

*Kuchli musiqiy xotiraga ega bo'lish;*

*Ijodiyotning turli qatlamlari: folklor, mumtoz musiqa, kompozitorlik ijodiyoti, estrada va boshqa sohalarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zlashtirish va ularga tegishli asarlarni ijro etganda ularga alohida-alohida yondoshib, ijro davomida bularni aks ettira olish;*

*Har bir asarning mazmun-mohiyatini saqlagan holda, o'ziga xos tarzda talqin eta olish va h.k.*

Demak, g'ijjak ijrochiligi bo'yicha tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislardan yuqorida sanab o'tilgan jihatlar talab etiladi. Albatta, bu talablardan boshqa ko'plab o'zlashtirilishi lozim bo'lgan jihatlar ham mavjud. Bularga birma-bir to'xtalib o'tamiz.

**G'ijjak cholg'usida sof tovushlar hosil qilish.** E'tibor berilishi lozim bo'lgan birlamchi jihat – bu g'ijjak cholg'usida sof tovushlar hosil qilishdir. Chunki, mutaxassislikka oid barcha yutuqlar shuning ustiga quriladi. O'quvchi ta'lim jarayonining ilk kunlaridan boshlaboq bunga alohida e'tibor qaratishi shart. Albatta, bu yerda ustozlarning roli beqiyosdir. O'quvchi avval temperatsiyalangan tovush qatorga oid tovushlar va ularning yozuvdagi aksi (notalar) kabi muhim bilimlarni egallaydi. Ma'lumki, g'ijjak sozida ushbu temperatsiyalangan tovushlar taqsimoti mavjud emas. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'ziga xos mashaqqatlar yuzaga chiqishi aniq. Biroq, o'quvchining iqtidori, mehnati va ustozlarning to'g'ri pedagogik yondashuvlar bularni yengishga ko'mak beradi. Avval, o'quvchi ijro etish jarayonida g'ardani tutish holati, g'ijjakni qanday ushlab ijro etish, kamon tortish qonun-qoidalari va boshqa shu kabilarni o'zlashtirib bo'lgach, bir oktava oralig'idagi notalarni asta-sekin ijro etishga o'tiladi va shu asnodda ushbu mashqlar murakkabligi kengaytirib, chuqurlashtirib boriladi.

**Milliy ijrochilik yo'nalishini o'zlashtirish.** Har bir milliatning o'ziga xos mentaliteti bo'lganidek, musiqa san'atidagi tafovutlarning ham mavjud bo'lishi shubhasizdir. Shuning uchun ijrochilar avvalo o'z milliy musiqasining o'ziga xosliklari, milliylik xususiyatlarini teran tushinib olishi, anglab yetishi juda zarurdir. Bunda ham bir necha muhim ishlarni amalga oshirish va bularda bardavom bo'lish talab etiladi. Xususan, milliy musiqaga oid asarlarni doimiy ravishda tinglab borish, ulardan namunalar ijro etish, bu boradagi zaruriy bilimlar, maxsus ta'limiy darslarni o'zlashtirish va ilmiy manbalardan xabardor bo'lishga urinish kabi ishlar muhimdir. Ushbu jarayonda ham ustozlarning ulushi katta. Keyinchalik milliy musiqamiz negizida shakllangan o'ziga xos uslublar, yetuk ijrochi va ijodkorlarning shaxsiy-individual uslublarini o'rganish va ulardan boxabar bo'lish kabilar ham talab etiladi.

**Musiqiy asarlar ijrosi davomida o'ziga xos ijroviy bezaklarni qo'llay olish.** O'quvchidan asarni o'zlashtirish va ijro etish davomida milliy musiqaga oid o'ziga xos ijroviy bezaklardan foydalanish, foydalanganda ham o'z o'rnida, kerakli darajada foydalanish talab etiladi. Chunki, milliy musiqamizni ijroviy bezaklarsiz tasavvur etish qiyin. Ularda milliylikka xos xususiyatlar o'zining yorqin aksini topadi.

**Kuchli musiqiy xotiraga ega bo'lish.** Ijrochining malakasi va saviyasini belgilab beruvchi yana bir omillardan biri – bu musiqiy xotiraning yuqori saviyada tarbiyalanishidir. Ushbu jihatni tarbiyalashda ham alohida-alohida bosqichlar mavjud. Masalan, bir asarni yodlab ijro etishni olaylik. Tajribadan o'tgan o'ziga xos bu tamoyil muhim bo'lib u quyidagi tarzda amalga oshiriladi. Avvalo, tanlangan musiqiy asar kerakligicha (ko'p marotaba) tinglanadi. Ushbu tinglash jarayonida favqulotda diqqat-e'tibor talab etiladi. Bunda asarning nota matniga qarab tinglash ham zaruriy omillardan biridir. So'ngra tinglash natijasida yaqindan tanishib chiqilgan asarni qismlarga ajratgan holda ijro etishga o'tiladi. Va nihoyat, asarni yaxlit holda takrorlash asosida yodlanadi. Albatta, murabbiy ustozlar o'zlarining tajribalaridan kelib chiqib bu borada ham o'ziga xos tamoyillarni qo'llashlari mumkin. Ammo, shuni unutmaslik kerakki, ijrochining kuchli musiqiy xotiraga ega bo'lishi ta'limning dastlabki onlaridan boshlaboq e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan jihatlardan biridir.

**Ijodiyotning turli qatlamlaridagi o'ziga xos ijroviy xususiyatlarni o'zlashtirish.** Ma'lumki, o'zbek musiqasi bir qancha ijodiyot yo'nalishidagi turlaridan iborat. Masalan, folklor, mumtoz musiqa, kompozitorlik, estrada va boshqa yo'nalishlar shular jumlasidandir. Shu bilan birga ular umum milliy xususiyatlarni kasb etsada, biroq o'ziga xos bo'lgan muayyan jihatlarga ham egadir. Ushbu tomonlarni o'zlashtirish va ijodiyotning har bir qatlamiga tegishli asarlarni ijro etganda ularga alohida-alohida yondashib, ijro davomida bularni aks ettira olish – ijrochilikning eng murakkab talablaridan biridir.

**Asarni o'ziga xos tarzda talqin etish.** Tarixdan shu narsa ma'lumki, milliy musiqamizning yana bir xususiyatlaridan biri bu talqin masalasidir. Ya'ni, muayyan bir asar o'zining ko'plab talqinlariga egadir. Bunda har bir ijrochining muayyan bir asarga o'ziga xos tarzda yondoshishi, betakror talqin ifodasini baxsh etishi nazarda tutilmoqda. Darhaqiqat, bir asarni turli ijrochilar tomonidan o'zgacha talqin etilganligiga juda ko'p duch kelamiz. Ularning har biri o'ziga xos badiiylik kasb etgan bo'ladi. Demak, har bir asarning mazmun-mohiyatini saqlagan holda, o'ziga xos tarzda talqin eta olish masalasi ham ijrochiligimizda zaruriy omillardan biri ekan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, g'ijjak cholg'usida sof tovushlar hosil qilish ko'nikmasini shakllantirish uchun sozanda yillar davomida tinimsiz mashqlar qiladi. G'ijjak ixtisosligining milliy ijrochilik yo'nalishida ana shu ko'nikmalarni ijro bezaklari



bilan uyg'unlashtirgan holda talqin etish ham talab etiladi. Shuningdek boshqa zaruriy jihatlar ham bu borada muhimdir.

Ushbu ishlarni amalga oshirishda va mahoratni tarbiyalash yuzasidan olib boriluvchi mustaqil mashg'ulotlarda doimiy e'tibor berilishi zarur bo'lgan omillar mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

- Musiqa nazariyasini mavzular bo'yicha bosqichma-bosqich o'rganib borish;
- Milliy musiqiy merosimizni muntazam o'zlashtirib borish.
- O'rganilayotgan musiqiy asarni ovoz bilan kuylash;
- Shaxsiy ijro uslublarida ijro etilgan musiqiy asarlarni tinglab, bir-biridan farqli jihatlarini tahlil qilib borish;
- Tinglayotgan asarni ichki eshitish qobiliyati orqali anglash, idrok etish;
- Tinglash jarayonida ijrochining tovush hosil qilish, kamon ishlatish va ijro jarayonida qo'llayotgan ijro bezaklariga e'tibor berish;
- Ijro etish jarayonida uslubdardan foydalanishga harakat qilish;
- Mavjud namunaviy uslublarni o'rganib bo'lgandan so'ng, o'zining shaxsiy ijro uslubini shakllantirish;
- Sozandalar ansambli ijrosidan g'ijjak sozini ajratib eshitishga harakat qilish.

---

## V BOB.

### G'IJJAK IJROCHILIGIDA QO'LLANILADIGAN BEZAKLAR

Har bir musiqiy asarning o'ziga xos ohanggi, mazmuni va janridan kelib chiqqan holda ijro yo'sini mavjud. Shunday ekan, ularning yuksak mahorat bilan ijro etilishi ushbu qirralarni ochib berishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Musiqiy asarni tinglovchiga yetkazish, unda asar haqida yaxshi taassurot uyg'ota olish uchun turli usul, ifodaviy vositalar va imkoniyatlar talab etiladi. Jumladan, uni yoqimli va jozibador qilib ijro etishda bezaklarning o'rni o'zgachadir.

G'ijjak ijrochiligiga oid barcha asarlar (ular xoh akademik, xoh an'anaviy yo'nalishiga tegishli bo'lsin) bunday imkoniyatlar, turli-tuman bezaklarga bo'ydir. Buning sababi sifatida g'ijjak sozining o'ziga xos murakkabliklar kasb etganligi, tovushlar sifati, diapazoni kengligi, ijrochilik usul va uslublarning xilma-xilligi kabilarni sanab o'tish mumkin.

Jumladan, an'anaviy ijrochilikda qo'llaniladigan musiqiy bezaklar ijro asarini ta'sirchan, ifodali, jonli va ma'nodor bo'lib sadolanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun bo'lajak sozanda g'ijjakning boshqa imkoniyatlari qatori, bunday bezaklarni ijro etish usullarini to'la o'zlashtirib olishi lozim. Buning uchun darslarda muntazam olib boriladigan mashqlar davomida an'anaviy ijrochilikka xos bo'lgan muayyan ko'nikmalar hosil qilinadi.

Ma'lumki, har qanday bilim va malakalarni o'zlashtirish asta va bosqichma-bosqich olib borishni talab etadi. Jumladan, an'anaviy ijrochilikda ko'nikmalarni hosil qilish jarayonida, birinchi galda mashqni kamonni ravon yurgizish hamda chap qo'l barmoqlarini ishlatishdan boshlab, ijro uslublarni o'zlashtirilishi davomida esa chap va o'ng qo'l harakatlarini erkin bajara olinishiga erishish lozim. Faqat shundan so'nggina musiqiy bezaklar ijro etilishini o'zlashtirilishiga kirishish mumkin.

Shu bilan birgalikda bunday ko'nikmalarni hosil qilishda shoshilish tavsiya etilmaydi. Ushbu jarayonni belgilashda barchaga bir xil yondoshilmaydi. Faqat o'qituvchi har bir o'quvchisining shaxsiy xususiyati, qobiliyati va boshqa shu kabilardan kelib chiqqan holda o'zi belgilaydi.

Asar ijrosi jarayonida ushbu bezaklarni o'rinsiz ishlatish maqsadga muvofiq emas, chunki har bir bezak o'z xususiyati va o'ziga xos mazmuniga ega. Shu sababli o'z o'rnida ishlatilishi lozim. Faqat shundagina va ulardan mohirona foydalana olinganidagina g'ijjak ijrochisi o'zining chuqur his-tuyg'ularini ifoda eta oladi. Shu sababli ham darslarda asosiy musiqiy bezaklarni ijro etish usullarini chuqur o'rganilishiga alohida e'tibor berish lozim.


G'ijjak ijrochiligida qo'llaniladigan bezaklar ko'p va xilma-xildir. Ulardan biri «nola» deyiladi. Bu tushuncha – g'ijjakning asosiy va eng zarur bezaklaridan birini, o'ziga xos tebranishni anglatadi.


Nolani ijro etishning ikki xil uslubi mavjud:

a) Biri – Ovrupo kamonli cholg'ulari ijrochiligida qo'llaniladigan odatdagi vibratsiya (tebranish) usulidir. Bunday usul barmoq bilan cholg'u toridagi bir pardani bosib, tebrantirish va shu tovushni galma-gal – bir oz ko'tarib va pasaytirib sadolantirish natijasida hosil bo'ladi.




b) Ikkinchisi – barmoq bilan g'ijjak torida dasta bo'ylab sirg'aluvchan harakat qilib ma'lum bir notaning (cho'zimi chegarasida) balandligini galma-gal – bir oz ko'tarib va tushirib ijro etilishi natijasida hosil bo'ladi.


**Nola** –  (to'lqinsimon chiziq) ushbu belgi bilan ifodalanib, aniq bir nota ustiga yoziladi.





Nolani ijro etish uchun chap qo'l barmoqlari vazmin sur'atda tebranma yoki sirg'aluvchan usulda harakat qila olinishiga erishish lozim. Ushbu harakatning tezlik sur'ati asta ortib borishi lozim.

Nola nota cho'zimi davomida qay vaqtda ijro etilishi bilan farqlanadi.

a) Ushbu –  belgi kechikkan nolani bildiradi. U tegishli nota sadolana boshlaganidan biroz fursat o'tgandan so'ng ijro etiladi. Bu nola belgisi yozuvda to'g'ri chiziqdan boshlanadi.

b) Bu –  belgi esa oldinroq tugagan nolani bildiradi, u tegishli nota sadolanishi tugashidan biroz aval to'xtatiladi. Bu nola belgisi yozuvda to'g'ri chiziq bilan yakunlanadi. G'ijjak ijrochiligidagi yana bir bezak – to'lqinlatishdir.



**To'lqinlatish** – chap qo'lning bir barmog'i muayyan notani bosib, yondosh barmoq bilan bir tongacha bo'lgan (kuy ohangiga qarab belgilanadi) oraliqlarida torga tekkizib, kuyning sur'atiga moslab mayin harakat orqali hosil qilinadi. To'lqinlatish ushbu belgi  (yirik to'lqinsimon chiziq) bilan ifodalanadi va nota ustida yoziladi. Uning nota ifodasi quyidagichadir:




**Molish** – g'ijjak ijrochiligidagi yana bir bezak bo'lib, barmoq bilan ma'lum bir notani bosib, uni asta legato usulida boshqa notaga uyg'unlashtirilishi natijasida hosil bo'ladi. Barmoqning yuqori yoki pastki nota tomon sirg'alishini ikki nota orasidagi ko'rsatkich chiziqcha (strelka) bildiradi. Jumladan, chiziqcha yuqoriga qaratilgan bo'lsa, barmoq yuqori nota tomon, aksincha pastga qaratilgan bo'lsa, unda barmoq pastki nota tomon sirg'alishi lozim. Sirg'alish yarim tondan kamroq oraliqda bajariladi.



**Qashish** – g'ijjak ijrochiligidagi yana bir bezak bo'lib, chap qo'l bar-moqlarining yarim yoki bir ton, kuy ma'nosiga qarab undan ham ortiqroq oraliqda yondosh nota tomon yuqoriga yoki pastga sirg'alib harakat qilishi natijasida hosil bo'ladi. Barmoqlarning yuqori yoki pastki nota tomon harakat qilishini nota ustidagi yozuvi belgilaydi:

-  yuqori notadan pastga
-  pastki notadan yuqoriga.




Qashish belgisidan so'ng yana boshqa bezak ham qo'llaniladi (nola, to'lqinlatish, forshlag...)

**Forshlag** – bir yo bir necha tovushdan iborat bo'lgan, asosiy notaga biroz oldinroq va yuqoridan yo pastdan ijro etiladigan qo'shimcha tovushdan iborat bo'lgan bezakdir. Uning tovush cho'zimi asosiy nota cho'zimi chegarasida bo'ladi. Ushbu bezakning nota ifodasi nisbatan kichik va ingichka yozilib, liga bilan ulanadi.

Forshlagning quyidagi turlari mavjud:

a) **Yuzaki forshlag** – ijro etilayotgan tovush sadosi uzilmasdan turib, torni bosmay, barmoq bilan ohista urib ketish yo'li bilan ijro etiladi.

Ushbu bezakning nota ifodasi:




Forshlag notasi ichi bo'yalmagan, ochiq holda yoziladi.

b) **Qisqa forshlag** – asosiy notaga yuqoridan yoki pastdan bitta notani qo'shimcha urib ijro etish:




Ijrosi qashish uslubiga yaqin bo'lgan usul.

d) **Mordent** – asosiy tovush va uning ustki yoki pastki yordamchi (tortiluvchi) tovushi bilan almashinish natijasida hosil bo'ladigan bezak:




e) **Naxshlag** – asosiy notaga ikki yoki undan ortiq qo'shimcha tovushni qo'shib ijro etish.




Qo'shimcha tovush cho'zimi asosiy nota cho'zimi hisobidan ijro etiladi.

i) **Sayratish**<sup>11</sup> – An'anaviy ijrochilikda ko'p qo'llaniladigan bezaklardan biri sayratish (trel)dir. Ushbu nafis bezakning ijrosi bulbulning churillab sayrashiga o'xshagani uchun, uni sayratish deb nomlashni lozim topdik. Bu sayroqi bezakning mohiyati shuki, ikki yonma-yon, ya'ni asosiy va undan yuqorida bo'lgan yordamchi tovushlarni tezkorlik bilan bir me'yorda navbatma-navbat ijro etilishidir.



**Rez** – kamonning yuqori qismini o'ng qo'lning tez va ravon harakati orqali yuqoriga hamda pastga harakatlanishi natijasida hosil bo'ladigan bezak.




<sup>11</sup> M.Toshmuhammedov. G'ijjakda an'anaviy ijroni o'zlashtirish. T., 1999. 12-bet.




## ILOVA

### KAMONLI CHOLG'ULAR

Kamon – ma'lumki «kamon» atamasi nafaqat musiqada, balki boshqa jabhalarda ham uchraydi. Musiqaga tegishli «kamon» atamasi bir uchidan ikkinchisiga qil tutami tortilgan tayoqchani anglatadi. Ushbu qil otning yolidan ishlanib, tasma shakliga keltiriladi va kamon bandiga tortiladi. G'ijjak, skripka, umuman skripkasimonlar oilasiga mansub barcha torli-kamonli cholg'u sozlari shu kamon bilan ijro etiladi. Kamonning cholg'u torlariga ishqalanishidan tor tebranib tovush chiqaradi. Uning qadimgi shakllari turli arxeologik topilmalar, badiiy asarlarga ishlangan suratlar va boshqa topilmalardan ma'lum. Tabiiyki, avvalgi kamonlar nisbatan sodda tuzilishga ega bo'lgan:




Hozirda kamonga nisbatan tuzilish va tayyorlanish hamda yaxshiroq natija bera olishi jihatdan takomillashgan vosita – smichok deyarli kamonning o'rnida qo'llaniladi va u ham «kamon» deb yuritilib kelinmoqda.



Kamon bir necha qismlardan iborat:

1. Kamonning bandi
2. Qillar tasmasi
3. Kamon uchi
4. Dastasi
5. Qisqich (qillar tasmagini kamon dastasiga zich biriktiradigan moslama)
6. Buragich (qillar tasmagini tortadi va bo'shatadi)

Kamonning torlarga ishqalanishida va sifatli tovush hosil qilishda maxsus vosita qo'llaniladi. Bu – g'ajjakni chalishdan oldin kamonning qillar tasma-siga surtiladigan maxsus yelim – kanifoldir. Usiz cholg'uda mutlaqo tovush hosil qilib bo'lmaydi.




Torli-kamonli cholg'u sozlarida sifatli, yoqimli va sof tovush hosil qilishda kamondan foydalanish (kamon tortish) katta ahamiyat kasb etadi. Bunda avvalo, kamonni g'ijjak torining muayyan qismi – xarrak va dasta oralig'idagi bo'lagi ustida tekis va ravon harakatlantirish zarur. Ikkinchidan, kamon tortish jarayonida uning uchi yuqoriga yoki pastga tomon qiyalanib ketmasligini doimiy nazorat qilib borish lozim.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, «kamon» atamasi ba'zida cholg'u soziga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, Kavkaz, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida g'ijjaksimon cholg'uning nomi, «kamoncha» («kemancha», «kyamancha») deb ham ataladi.

#### VIOLA

Viola – bu gitaraga o'xshash oltita torga ega bo'lgan cholg'u. Ammo, uning gitara cholg'usidan farqi kamon (smichok) bilan ijro etilishidadir. Rasmda ko'rsatilgan bas viola ham yakkanavoz cholg'u, ham orkestr cholg'usi sifatida 16–17-asrlarda juda keng ommalashgan edi.



Shuningdek, uni kamon bilan o'tirgan holda ham ijro etish mumkin. Bu uning qulaylik tomonlari va o'z davrida keng tarqalishining sababiy omillaridan biri bo'lishi mumkin.






Ammo, viola o'rnini asta sekin violonchel egallab bordi. Uning ovoz diapazoni uch oktavaga yaqin, balandligi turli xil: 60 sm dan 1,8 m gacha bo'lgan. Rasmda ko'rsatilgan bas viola 1,3 m balandlikka ega.

### G'IJJAK


G'ijjak – torli-kamonli musiqa cholg'usi bo'lib, turli Sharq xalqlari, xususan o'zbek, tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkmanlarda qo'llaniladi. Ammo, unga o'xshash cholg'ular boshqa xalqlarda ham bo'lib, turlicha nomga ega. Masalan, «kemancha» nomi bilan ozarbayjon, arman, gruzin, eron, turk va boshqalarda umumiy ko'rinishi, ijro tarzi, torlarining soni va yasalish materiali kabi jihatlar bilan bir-biriga juda o'xshaydi. Hozirda G'ijjakning torlar soni 4 ta bo'lib, kvarta-kvintaga sozlanadi. Ular dastaning yuqori qismida joylashgan shayton xarrak va kosaxona ustidagi xarrakka yotqiziladi. Umumiy diapazoni 4 oktavadan ortiq. G'ijjakning inson ovoziga yaqin, nozik va dardli tovushi, qochirimlarga boy, xonaqoiy ijro uslubi tufayli milliy mumtoz musiqa ansambllarida asosiy o'rin tutadi.



Hozirgi zamonaviy g'ijjaklarning ko'rinishi ancha murakkab tus olgan bo'lib, shu bilan birga ularni did bilan bezash, ularning shakli va ko'rinishiga badiiy jilo berish kabi jihatlar ham ancha takomillashib bormoqda.


### ERXU

Erxu – bu 2 ta torga ega bo'lgan xitoy xalq cholg'usidir. Torlari ot qilidan tayyorlanadi. Uning ovozidagi o'ziga xosliklar cholg'uning tazilishi va qismlariga bog'liq holda juda jozibador yangraydi.



### ANDALUSIYA REBABI


Andalusiya rebabi – cholg'usi skripka, violonchel va boshqa torli-kamonli cholg'u sozlarining qadimgi turi hisoblanadi. U yo'g'on tembrga egaligi sabab, undan yakkaxon cholg'ular yoki ovozlar uchun jo'rnavoz sifatida foydalaniladi. Hozirda u juda kam qo'llaniladi va faqat Marokkodagina saqlanib qolingan, xolos. Ovoz diapazoni 1,5 oktavaga yaqin. U teri qoplangan 56 sm uzunlikdagi yog'och korpus va 2 ta torga ega.



### REBEK


Rebek cholg'usi – torli-kamonlilar oilasiga mansub bo'lib, XII asrda O'rta Sharqdan Yevropaga kirib kelgan cholg'u hisoblanadi. U o'rta asrlar, xususan Uyg'onish davrida juda ommalashib, turli bayramlarda, ibodatxona marosimlarida, saroylardagi bazmlarda ijro etilgan. U daraxtdan yasilib, 58 sm uzunlikka ega. Ovoz diapazoni ikki oktavaga yaqin.





## SKRIPKA


Skripka (slavyanacha skri – g'ijirlamoq) – torli kamoni musiqa cholg'u asbobi. Skripkasimon cholg'u asboblari orasida yetakchi, eng baland registrlil soz. 4 ta tori kvinta intervali bo'yicha sozlanadi. Diapazoni 4 oktavadan oshiq. Umumiy uzunligi 600 mm. Skripkaning klassik shakli 15–16-asrlarda Italiya va Fransiyada yuzaga kelgan. 17–18-asrlarda Shimoliy Italiya, ayniqsa, Kremona ustalari A. va N. Amati, J. Gvarneri, A. Stradivari va boshqalar skripkaning mukammal namunalarini yaratishgan. Skripkalar simfonik orkestr va cholg'u ansambllar asosini tashkil qiladi. 17–18-asrlardan skripkada yakkanavozlik san'ati rivojlanib kelmoqda, skripka musiqasi yaratilmoqda. Bu sohada 19-asrda virtuoz skripkachi va mashhur kompozitorlar N. Paganini, P. Sarasate va boshqalarning xizmati katta bo'ldi. 20-a. skripkachilaridan F. Kreysler (Avstriya), I. Menuhin (Angliya), I. Stern, I. Perelman (AQSH), A. S. Mutter (Germaniya), Sh. Mints (Isroil), G. Shering (Meksika), D. Oystrix, L. Kogan, M. Vengerov (Rossiya), G. Kremer (Latviya) va b. mashhur. O'zbekistonda M. Reyson, N. Pover, V. Yudenich va b. skripkachilar tanilgan. Hozirda yosh avlod ijrochilaridan D. Xoliqov, N. Hoshimov, T. Yaxshiboev, D. G'ulomjonov va b. Xalqaro tanlovlarda g'alabalarga erishgan. O'zbekiston kompozitorlari S. uchun konsertlar (Ik. Akbarov, S. Jalil va b.), sonatalar (G. Mushel, N. Zokirov va b.) kabi asarlar yaratishgan. 20-a. boshidan o'zbek (Andijon maktabi va b.) sozandalari ba'zida S. dan g'ijjak o'rnida foydalanishadi.



## ALT


**Alt** – skripkasimon sozlar guruhiga mansub 4 torli kamoni soz, shaklan skripkadan kattaroq, kvinta past sozga ega. A. turli ansambllarda va simfonik orkestrda jo'rnovoz va yakkanavoz soz sifatida ishlatiladi.





### VIOLONCHEL

Violonchel (ital. violoncello) – skripkasimonlar oilasiga mansub torli-kamonli soz. Bastenor registrli. 4 tori kvinta oralig'ida sozlanadi. Diapazoni 5 oktavaga yaqin. Umumiy uzunligi 155 sm. Ijro paytida violonchelni tik holatda ushlab oyoqlar orasiga qo'yishadi. 15-asr oxiri –16-asr boshida Yevropada xalq kamonli sozlari rivoji natijasida yuzaga kelgan. Yakkanavoz soz sifatida hamda turli ansambl va orkestrlar tarkibida ishlatiladi. O'zbekistonda violonchel ijrochiligi 19-asr oxirida shakllangan. O'zbekiston kompozitorlaridan S. Jalil violonchel va orkestr uchun konsert, G. Mushel, B. Gienko, F. Yanov-Yanovskiy, S. Karimxo'jaev, N. Zokirovlar turli p'esalar yozgan.



### KONTRABAS

Kontrabas (ital. contrabasso) – skripkalar oilasiga mansub sozlarning eng kattasi bo'lib, bo'yi 2 m gacha bo'ladi. U eng past (yo'g'on) ovozli torli-kamonli musiqa cholg'usidir. Kontrabasni 17-asr o'rtasida italyan musiqa cholg'ulari ustasi M.Todini ixtiro qilgan. Kvarta oralig'ida sozlanadi to'rtta tori bor (E-A-D-G). Kontrabas ko'proq orkestr va ansambllarda, ba'zan yakkanavoz soz sifatida ham qo'llaniladi. Mashhur kontrabaschi virtuozlar – J.Bottezini (Italiya), E.Nanni (Frantsiya), S.Kusevitskiy, R.Azarxin (Rossiya) va boshqalar. Shuningdek, kontrabas djaz musiqasida ham juda faol tarzda qo'llaniladi. Boshqa musiqa



asboblarining eng yo'g'on ovozli turlarining nomiga ham «kontrabas» atamasi qo'shimcha qilib aytiladi. Masalan tuba kontrabas, trombon kontrabas., balalayka kontrabas va h.k. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun qayta ishlangan sozlar orasida dutor kontrabas, g'ijjak kontrabaslar mavjud. Ular asosan jo'rnavoz sifatida qo'llanilib kelinmoqda.




### **BASOLYA**

Basolya cholg'usi torli-kamonli cholg'ular ichida o'ziga xos tembri va ko'rinishi bilan ajralib turadi. U ukrain xalq ijrochilik an'analariga tegishli bo'lsada, ammo o'zining tuzilishi, ijro tarzi va boshqa jihatlari bilan boshqa xalqlarning shu turdagi cholg'ulariga, xususan belarus ijrochiligiga oid basetlya soziga o'xshashdir. Mazkur soz ham skripkasimonlar oilasiga mansub bo'lib, ham an'anaviy, ham akademik musiqa ijodiyotida qo'llaniladi. Ushbu jihatlari, ya'ni tuzilishi, hajm, ijro tarzi va tembr tomonlari violonchel cholg'usiga juda ham yaqin. Uning torlari odatda 4 ta bo'ladi, ammo 3 torli basolyalar ham uchraydi. Uning torlari kvartaga sozlanadi.




DIGA

Diga cholg'usi «dingas» deb ham nomlanadi. Uning korpusi to'g'riburchakli bo'lib, yog'ochdan ishlanadi. Ushbu cholg'u latviya xalqi musiqiy san'atiga tegishli bo'lib, o'ziga xos milliylik xususiyatlarini kasb etgan va kamon bilan ijro qilinadi. Uning uzunligi taxminan 500 mm dan to 1000 mm taga bo'lishi mumkin. Umumiy tovushqator diapazoni bir, ikki oktava va undan ortiq bo'ladi. Digalar dastlab bitta torli bo'lgan. Keyinchalik ularga yana ikkita tor taqilib, ancha rivojlantirilgan. Ushbu cholg'u sozi XIX asr oxirida Latviyada juda keng tarqalgan. Markaziy shaharlarda uni ishlab chiqaruvchi alohida ustaxonalar mavjud edi.



1947-yilda S.M. Krasnoperov digalarning oilasi – kichik, katta va kontrabas digalarni yasashga kirishadi.






GUDOK

Gudok cholg'u sozi ham torli-kamonli cholg'ular oilasining yana bir turi sifatida mashhurdir. Tabiiyki, u ham kamon yordamida ijro etiladi. Mazkur cholg'u uchta torga ega bo'lib, rus xalqiga tegishli. Aniqrog'i sharqiy slavyan yog'och cholg'ularidan biridir. Uni o'tirgan holda tizzaga tik qo'yilib ijro etiladi. Ko'p ijrochilik sohalari, xususan xalq qo'shiqlari, xor va boshqa yakkaxon tarzdagi ijrochilarga jo'rnavozlik qilishda ham, shuningdek yakkaxon cholg'u sifatida ham undan keng foydalaniladi va bu jihatlar ham xalq musiqasi, ham akademik musiqaga tegishlidir. Gudokning torlari orasida birinchi tor yetakchi ahamiyat kasb etib, qolgan torlar unga faqat ochiq holatdagina jo'r bo'lib turadi va ular birinchi torga kvinta oralig'ida unison tarzda sozlanadi. Ammo, turli joylarda uning kvinta sozini ham, kvartali sozini ham uchratish mumkin bo'lgan. Uning umumiy uzunligi 700–800 mm.



## KEMANCHA (kyamancha)

Kemancha – Ozarbayjon xalqining eng sevimli va keng tarqalgan cholgʻu sozlaridan biri boʻlib, u ham torli-kamonli cholgʻular sirasiga kiradi. Uning nomlanishi turli manbalarda turlicha keltirilgan: «kemancha», «kamancha», «kyamancha». U uch-toʻrt torli cholgʻu boʻlib, sharsimon shakldagi korpusga ega va yongʻoq daraxtidan yasaladi. Uning umumiy uzunligi 640–660 mm. Mazkur cholgʻu nafaqat ozarbayjonlarda, balki dogʻiston hamda arman va gruzin xalqlarining musiqiy hayotida ham keng va muhim oʻrin egallagan. Uning tuzilishi, ovoz tembr xususiyatlari va boshqa koʻplab jihatlari bilan bizning cholgʻularimiz orasida mashhur boʻlgan gʻijjak soziga juda yaqin. Shuning uchun uni koʻplab Sharq xalqlarida qoʻllaniluvchi gʻijjaksimon cholgʻular qatoridagi cholgʻu deb atash mumkin. Uning torlari kvinta boʻyicha sozlanadi. Xususan, birinchi tor – ikkinchi oktava mi tovushiga, ikkinchi tor – birinchi oktava lya tovushiga, uchinchi tor – birinchi oktava re tovushiga, toʻrtinchi tor esa kichik oktavadagi sol tovushiga sozlanadi. Kemanchada solo ham, kuy va qoʻshiqlarga joʻrnavor sifatidagi ijrolar ham amalga oshiriladi. U «trio» nomlangan tarkib (tor, kemancha, daf)ga mansub boʻlib, ushbu trio tomonidan ijro etilib kelinayotgan asarlar oʻziga xosligi bilan yaqqol ajralib turadi. Shuningdek, boshqa turdagi ansambllar va xalq orkestrlarida ham faol tarzda qoʻllanilib kelinmoqda. 1920–1940-yillarda V.G. Buni mazkur cholgʻuning oiladosh cholgʻularini amaliyotga taqdim qiladi. Xususan, prima, alt, violonchel va kontrabas kemanchalar ishlab chiqilgan. Ammo, bular Sharq simfonik orkestrlarida kam qoʻllaniladi. Quyida uning baʼzi bir koʻrinishlari keltirilgan.






Kamancha nomli cholg' u Eron xalqi musiqa hayotida ham mavjud bo'lib, skripkasimonlarning bir ko' rinishidir. Ushbu cholg' u XVIII asrlardan qo' llanila boshlaganligi ma' lum. Dastlabki vaqtlarda unda ipakdan bo' lgan uchta tor mavjud bo' lgan. Ammo, hozirgi zamonaviy ko' rinishida esa metaldan yasalgan to' rttta tor mavjud. Kamancha o' zining mayin ovozi tufayli yakkaxon cholg' u (solo) sifatida ham, shuningdek ansambl tarkibida ham qo' llaniladi. Uning diapazoni 2,5 oktavaga yaqin. Kamancha cholg' usini ijro etish uchun uning oyoqchasini yerga tiragan holda vertikal tarzda ushlanadi. Mazkur cholg' u geografik jihatdan Yaqin Sharqda yashovchi mamlakatlarda ham uchraydi:



### KYAMANI


Kyamani – to' g' ri burchakli yoki yumaloq korpusli cholg' u sozidir. Uning umumiy uzunligi 500 – 800 mm. Uning torlari metaldan bo' lib, 3 tadan 12 tagacha bo' lishi mumkin. Kyamanilarning kichik, katta turlari bo' lib, ular ham o' z navbatida uch ko' rinishda bo' ladi. Birinchisi, 3 yoki 4 torli kyamanilar; ikkinchisi, 8 torli kyamanilar, uchinchi xili, 12 torli kyamanilardir. Ularning sozlanishi ham turlicha bo' lib, ba' zan kvartaga, ba' zan esa kvintaga sozlanadi. Ularni vertikal tarzda ushlab ijro etiladi. Ularda turli raqs va boshqa janrdagi asarlar ijro etiladi. Shuningdek, ularni asosan «ashug» (oshiq)lar ijro etib kelishgan. Mazkur cholg' uni ham Sharq simfonik orkestriga kiritish uchun V.G. Buni tomonidan prima, alt, bas va kontrabas kyamanilar ishlab chiqilgan. Quyida kichik va katta kyamani hamda mukammallashtirilgan (takomillashtirilgan) kyamanilar ketma-ketlikda keltirilgan:





## SIGUDEK


Sigudek – komi xalqining o'ziga xos xarakterli cholg'usi bo'lib, o'zining ijro yo'sini, kuchsiz va xira ovoz tembri bilan ajralib turadi. Unga uch tor taqilgan hamda tirnab ham, kamon bilan ham ijro etiladi. Sigudek sozining umumiy uzunligi 500–700 mm. Aksar hollarda mazkur cholg'u qo'shiqchilar tomonidan o'z ovozigga jo'rnavoz sifatida, shuningdek boshqa holatlarda ham qo'llaniladi. Sozanda mazkur cholg'uni o'tirgan holda ijro etadi. Tarixiy davrlarda bu cholg'uning ham turli ko'rinish va turlari yasali b kelingan.



## BASETLYA


Basetlya – torli-kamon cholg'ular oilasiga mansub yana bir cholg'u sozi bo'lib, o'ziga xos tembr va kuchli tovush sifatiga egadir. U ham kamon bilan ijro qilinadi va belorus xalqining sevimli cholg'ularidan biri. Uning tuzilishi, shakli, ijroviy tarzi va boshqa jihatlari bilan violonchel cholg'usiga yaqin. Shuningdek, ukrainlarning basolyasiga ham o'xshashdir. Basetlya sozi asosan pastki ovoz – kamer bas ahamiyatiga ega bo'lganligi uchun aksariyat sharoitlarda xalq cholg'u ansambllari tarkibida qo'llaniladi va shuning uchun yakkaxon ijrochilik uslubi borasida esa juda kam ishlatiladi. Uning to'rtta tori bor.





### VERSIKANNEL


Versikannel – bir torli cholgʻu sozi sifatida monoxordlar turiga mansub. Versikannelning zamonaviy koʻrinishi eniga qisqa boʻlgan uzun yashik koʻrinishidadir. Korpusining hajmi: uzunligi – 800 mm, kengligi – 90–120 mm, balandligi – 50–60 mm. Unda xromatik grif mavjud boʻlib, metaldan yasalgan boʻladi. Ushbu cholgʻuning ijrosi paytida uni stolga gorizontol holatda joylashtiriladi. Oʻng qoʻl kamon tortadi, chap qoʻl barmoqlari esa ladga mos tovushlarni bosib turadi.



### KOVIJ

Kovij – mari xalqining musiqiy cholgʻu sozi boʻlib, u «komij», «iya-kovij» kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Yogʻochdan ishlanuvchi mazkur cholgʻuning ikki tori bor. U yoysimon kamon orqali ijro etiladi. Uning tembri va boshqa muhim

xususiyatlari sabab mari xalqi tomonidan juda keng tarzda, ansambllar tarkibida, yakkaxon tarzda, jo'rnavoz sifatida, xonandaning o'zi tomonidan va boshqa ko'rinishlarda ham qo'llanilib kelinadi.



RAVANASTR

Ravanastr – ijro tarzi g'ijjak sozining ijroviy yo'sini bilan bir xil bo'lgan cholg'u sozi bo'lib, hind xalqiga tegishlidir. Uning «ravanastram», «ravanastra», «ravanastron» kabi nomlari ham mavjud. Ushbu cholg'uning kosaxonasi yog'ochdan bo'lib, o'ziga xos tarzda o'yib tayyorlanadi va unga ilon terisi qoplanadi. Uning lad pardalari, tovush tembri, mayin va jozibador ovoz hosil qilish xususiyatlari tufayli keng tarzda qo'llanilib kelingan. Shuningdek, undan qo'shiqchi va xonandalarga jo'rnavoz sifatida foydalaniladi. Bu cholg'uga ipak yoki ichakdan qilingan ikkita tor tortiladi.




SARANGI

Sarangi – qisqa grifli torli-kamonli cholg'u. Ijro vaqtida uni vertikal tarzda tizza (quchoq)ga joylashtirib, yuqori qismini chap yelkaga qo'yib ijro etiladi. Ovozining




to'yinganligi va yoqimliliği sabab xalq musiqasi bilan birgalikda, hind xalqlarining mumtoz musiqasida ham keng qo'llaniladi. Uning korpusi daraxtdan yasaladi. Hind xalqiga mansub bu cholg'uda asosan jo'rnavozlik ijrolari keng tarqalgan. Sarangining uzunligi 100-120 sm, kengligi 16 sm, og'irligi 2 kg gacha bo'ladi. Katta sarangilarda 35 dan 39 tagacha, kichik sarangilarda esa 25 tacha ichakdan yasalgan torlar bo'ladi. Sarangi ijrochisi sozni chordana qurib o'tirgan holatda ijro qiladi.



### XIYUKANNEL

Xiyukannel – to'rt torli cholg'u sozi, yog'och korpusga ega. Mazkur cholg'u eston xalqining musiqiy hayotida katta o'rin tutuvchi cholg'udir. U «rootsikannel» nomi bilan ham ataladi. Uning torlari qil, ichak va metaldan ishlanadi. Ushbu torlar skripkadagidek, cholg'uning pastki qismiga mahkamlanadi. Ularning sozlanishi ba'zan kvinta, ba'zan kvarta-kvinta bo'ladi. Cholg'uning uzunligi taxminan 450–520 mm, kengligi – 210 mm, balandligi esa 45–50 mm ga teng bo'ladi.




### CHUNIRI

Chuniri – ikki, uch torli cholg'u sozi. Uning korpusi bir tomoni teri membranasi bilan qoplangan gardishdan iborat. Uning uzunligi 760 mm, gardish kengligi 80–




120 mm, diametri –180–250 mm. Mazkur cholg'u sozi gruzin xalqiga mansub bo'lib, sozlanish tamoyiliga ko'ra ajralib turadi. Xususan, undagi torlar tertsiya yoki sekunda-tertsiya asosida sozlanadi. Mazkur cholg'u ham ko'p torli-kamonli cholg'ular singari vertikal tarzda ushlanib ijro etiladi. U tarixiy davrlar tomonidan xilma-xil ko'rinishlarni kasb etib kelgan. Uning o'ziga xos tembri, ovoz imkoniyatlari, diapazonining kengligi, shuningdek, kontrabas va bas namunalariga ham egaligi bilan keng va faol tarzda qo'llanilib kelingan. Quyida uning turli-tuman ko'rinishlari keltirilgan:





## APXARTSA

Apxartsa – abxazlarning torli-kamonli cholg'ularidan biridir. U «apxertsa», «abxartsa» deb ham ataladi. Apxartsaning ikkita tori bo'lib, duksimon (urchuqsimon) korpusga ega. Mazkur cholg'uning boshi, bo'yni va korpusi daraxtning (zarang, lipa, kashtan va b.) bitta yaxlit bo'lagidan tayyorlanadi. Uning umumiy uzunligi 700–800 mm. Apxartsa torlari avval kvartaga sozlanar edi, hozirda kvintaga sozlanib kelinmoqda. Uning ovozi kuchsiz bo'lsada, biroq o'ziga xos jozibadorlikka, yoqimlilikka ega. Xalq musiqasida undan yakkaxon qo'shiqchilar va xor uchun jo'rnavor cholg'u sifatida foydalanadilar. AVALGI vaqtlarda ushbu cholg'u urushlar davomida vatan, xalq, ota-ona haqidagi qayg'uli mavzulardagi qo'shiqlarni kuylashda hamda, janggovor kayfiyatni oshirish maqsadlarida ishlatilgan. Hozirda mazkur cholg'uda ikki ovozli asarlar ham, bir ovozli asarlar ham ijro etiladi.



---

## **G'IJJAK IJROCHILIGI USTALARI**

### **TO'XTASIN JALILOV (1896-1966)**



O'zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor, mohir g'ijjakchi sozanda T. Jalilov XX asr o'zbek musiqasi tarixida katta o'rin egalladi. T. Jalilov 1896 yili Andijon shahrida aravakash Jalil ota oilasida tug'ildi. U bolaligidan musiqani sevgan va dastlab Oppoq Oxun va Muhammad tanburchilardan cholg'uchilikni o'rgangan. Keyinchalik qo'qonlik Yusufjon changchidan xalq musiqasi boyliklarini mukammal o'rganib, ularni idrok etish malakasini hosil etgan. Ustozlarning saboqlari kelajakda T. Jalilov mohir sozanda va ovozi yoqimli ashulachi bo'lib yetishishida, qolaversa, xalqchil kuy, qo'shiq va ashulalar ijod etishida muhim zamin bo'ldi. Bu ulug' insonni san'atkor ahli va xalqimiz hurmat qilib « Usta» deb e'zozladi. Ayni paytda, ustaning yangi zamon ruhi bilan sug'orilgan musiqiy asarlari bilan o'zbek bastakorligi jabhasida yangi davr ham boshlandi. T. Jalilovning « Aziz Vatanim», «Ey, hur Vatanim», «To'ylar muborak», «Kokiling», «O'ynasin» kabi qo'shiq va ashulalari xalqimiz orasida mashhur bo'lib ketgan. Shu bilan birga T. Jalilov O'zbekistonda musiqali drama janri shakllanib, rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan san'atkordir. Jumladan, usta «Halima», «O'rtoqlar», «Gulsara», «Nurxon», «Tohir va Zuhra», «Ravshan va Zulxumor», «Farg'ona hikoyasi», «G'unchalar», «Alpomish» kabi sahna asarlariga musiqasi bastalagan. T. Jalilov jami qirqdan ortiq sahna asarlariga musiqasi ijod etgan.


### **MAMADAZIZ NIYOZOV (1907–1970)**





O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, mohir g'ijjakchi sozanda va bastakor M. Niyozov Andijonning Qo'rg'ontepa tumanida dehqon oilasida tug'ildi. U bolaligidan musiqaga qiziqib, kattalardan dutor chertish, keyinchalik g'ijjak chalishni o'zlashtirdi. Bo'sh vaqtlarida mahalliy san'atkorlarga qo'shilib, xalq kuylarini chalishni o'rgandi. 1926 yilda mashhur bastakor T. Jalilov bilan tanishib ijodiy faoliyatini boshladi. Respublikamizdagi musiqali drama teatrlarida, madaniyat saroyi va Respublika madaniyat uyida o'zbek ashula va raqs ansambllariga rahbarlik qildi. M. Niyozov yuzdan ortiq qo'shiq va kuylar yaratdi. Ulardan ayrimlari: «Mubtalo bo'ldim senga», «Salom onajon frontdan», «Paxtakorim», «Xol bo'lsam», «Na go'zalsan», «Saodatli diyorimsan», «Jonim Navoiy ko'ring», «Jon Ozbekiston», «Sayr etaylik», «Kecha» va boshqalar.

### **MUXTORJON MURTAZOYEV (1909–1994)**



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, sozanda, xonanda va bastakor M. Murtazoyev 1909 yilda Qo'qon shahrida tug'ildi. U maktabda havaskorlik to'garagida ashula aytib, g'ijjak va dutor chalishni o'rgana boshladi, yil sayin boshqa cholg'ularni ham o'zlashtirdi. Tez orada u xonanda va sozanda sifatida ommaga tanildi. Avval Qo'qon shahar temiryo'l teatriga, so'ngra Hamza nomidagi Qo'qon shahar musiqali drama teatrida ishladi. Bu dargohda ajoyib san'atkorlar bilan ishlab, ijod eta boshladi. «Bo'lsin omon», «Bir ishva bilan», «Ey go'zal», «Obod o'lkam», «Yigit qo'shig'i», «Hur diyor», «Vatanga muhabbat» kabi qo'shiqlarni yaratdi. Urush davrida u Yangiyo'lda Yunus Rajabiy rahbarligidagi jamoada ishlab «Vatanim», «Tor-mor aylay bugun», «Maktubingizni oldim», «Vafodorlar», «Malohat» kabi qo'shiqlarni yaratdi. Kayinchalik Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatrida, Hamza nomli Qo'qon musiqali drama teatrida, Qo'qon shahar xalq teatri huzuridagi maqomchilar ansamblida badiiy rahbar bo'lib ishladi. Bu davrda ham u mumtoz va zamonaviy shoirlarning she'rlariga qo'shiq va ashulalar bastaladi. «O'rtama», «Gulzor makon», «Bizni tashlab», «Farg'ona tong otguncha», «Ey ko'ngil», «Tasadduqman», «Tamanno», «Jafo ham qilmading», «Jonim erursan» kabi yuzlab qo'shiq va ashulalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari «Do'stlar» «Qumrining murodi», «Ishq obod», «Xolisxon» kabi bir qator sahna asarlariga ham musiqa bastalagan.

### **NABIJON HASANOV (1913-1972)**



O'zbekiston xalq artisti, mohir g'ijjakchi sozanda va bastakor N. Hasanov 1913 yilda Samarqand shahrida hunarmand oilasida tavallud topdi. Dastlabki musiqa saboqlarini taniqli kompozitor T. Sodiqovdan oldi. 1926 yilda mashhur bastakor, sozanda T. Jalilov bilan tanishib musiqiy merosimizdan ko'plab asarlar o'zlashtirdi. Keyinchalik hofiz va bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulovdan mumtoz musiqa sirlarini o'rgandi. Respublikamizning ko'plab san'at maskanlarida ijod etdi. Zamon bilan hamnafas bo'lib, hayotdan, mehnat ahlidan, ayniqsa, yoshlarning go'zalliklarga intilishlaridan ilhomlanib, 150dan ortiq rang-barang, turli yo'nalishlarda o'z uslubiga xos qo'shiq, yalla va ashulalar yaratdi. «Yarashdi», «Sallamno», «Ko'rdim», «Jonajon o'lkam», «Ona Samarqand», «Tasadduq», «Parvona bo'libman», «Qizgina», «Charos», «O'ynab o'ting, shabbodalar», «Qizlar vals», «Gulchehralar», «Baxt yallasi», «Oq kaptardan iltimos», «Intizor» kabi qo'shiq va yallalar shular jumlasidandir.

### **G'ANIJON TOSHMATOV (1913-1994)**



O'zbekiston xalq artisti, sozanda-g'ijjakchi, ustoz, jamoat arbobi, bastakor G'. Toshmatov XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Bu ajoyib inson o'zbek va uyg'ur xalqlarining musiqiy merosini, ijrochilik va bastakorlik san'at an'alarini davom ettirib, el-yurt hurmat-e'tiboriga sazovor bo'ldi. G'.Toshmatov 1913 yil 22 iyunda Andijon viloyati Asaka tumanida, dehqon va havaskor sozanda Toshmat ota Shomatov oilasida tavallud topdi. Bolaligidan musiqaga qiziqib otasi va akalaridan soz chalishni o'zlashtirishga harakat qildi. 1930-32 yillarda Andijonlik mashhur san'atkor Sobirjon Siddiqovdan g'ijjak chalishni o'rgandi. 1932 yilda Andijon viloyat musiqali drama teatriga g'ijjakchi sifatida ishga qabul qilindi va



ijodiy faoliyatini boshladi. Keyinchalik poytaxt va viloyat teatrlarida, O'zbekiston radiosida ham sozanda ham rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. Uning ijrosida yangragan «Ushshoq», «Dugoh», «Segoh», «Nasri Segoh», «Chapandozi Bayot», «Farg'ona Buzrugi», «Surnay Buzrugi», «Navro'zi Ajam» kabi maqom cholg'u yo'llari bilan birga «Yalang Daron», «Nisor», «Tong otguncha», «Yorim kelur», «Tanovar»ning bir necha turlari va o'zi bastalagan «Guljamol», «Kezarman», va boshqa kuylarni juda ham yuksak mahorat bilan talqin etgan. G'. Toshmatov mumtoz va zamondosh shoirlarning she'rlariga asoslanib 400dan ortiq asarlar yaratdi. «Istadim», «Kezarman», «Qaro zulfing», «Guljamol», «Hay-hay na sanam», «Ey begim», «Qoshi qarosi», «Menga nomehribon bo'ldi», «Sog'inib», «Gulshan diyorim», «Mash'al Toshkentim», «Qiz uzatdik», «Doyra dum-duma», «Alyor», «Gullar» kabi asarlar bularning ayrimlaridir. Respublikamizda mashhur Dutorchilar ansambli G'. Toshmatov nomi bilan ataladi.

### **KOMILJON JABBOROV (1914–1975)**



O'zbekiston xalq artisti, atoqli sozanda va bastakor. U o'zining betakror musiqa asarlari va nodir ijrochilik san'ati bilan respublikamiz milliy musiqa madaniyatining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib, XX asr o'zbek musiqa tarixida yorqin iz qoldirdi. K. Jabborov 1914 yilning 15 aprelida Andijon shahrida ishchikosib oilasida tug'ildi. Komiljonning bolaligidan musiqaga qiziqishi va qobiliyatini ko'rib akasi kechalari dutor chertishni va g'ijjak chalishni o'rgatadi. 1923 yildan umumta'lim maktabida o'qidi, maktab havaskorlik ansambliga qatnasha boshladi. Komiljon 1925-29 yillarda Namangandagi «Namuna» maktabida mashhur sozanda Usta Ro'zimatxon Isaboyevdan ta'lim oldi. 1929 - 1946 yillarda respublikamizdagi musiqali drama teatrlarida sozanda bo'lib ishladi. 1946 yildan to umrining oxirigacha O'zbekiston radiosi qoshidagi maqom ansamblida, o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida ishladi. K. Jabborov g'ijjakda «Dugoh», «Segoh», «Gul mavsumi», tanburda «Samarqand Ushshog'i», «Gulyor», dutorda «Kurd», «Nolish» kabi kuylarni o'ziga xos uslubda talqin etgan. U turli mavzularda yuzdan ortiq kuy, qo'shiq va ashulalar yaratdi. Bular «Muhtalo bo'ldim senga», «Nazzora qil», «Diyorimsan», «Assalom», «Gul mavsumi», «Shifokorlar», «Kel», «Ko'rgum kelur», «Ozoda o'lkam», «Lolaxon», «Bahor qo'shig'i» kabilardir.



## DONI ZOKIROV (1914–1985)



O'zbekiston Xalq artisti, g'ijjakchi-sozanda, dirijor, murabbiy, jamoat arbobi, kompozitor D.Zokirov 1914 yil 28 dekabrda Samarqand shahrida tug'ildi. Bolaligida mashhur san'atkor Muhiddin Mavlonovdan g'ijjak, nay, dutor chalishni o'rgandi. O'zbek va tojik xalq musiqa merosini o'zlashtirishida aynan shu ustozining bebaho mehnati yuqori zamin bo'ldi. 1926 yilda maktabga borib, musiqa to'garagiga qatnashib yurdi. 1929 yili Samarqandda tashkil etilgan Musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot institutiga o'qishga kirib M.Burhonov, T.Sodiqov, M.Leviyev va O.Xakimovlar bilan do'st bo'lib, Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdurahmon, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Matyusuf va Matyoqub Xarratov kabi ulug' ustozlardan saboq ola boshladi. 1929–1935 yillari Respublika musiqali drama teatrida M.Qori-Yoqubov, Tamara-xonim, Usta Olim Komilovlar bilan birga ishladi. 1936 yili Toshkentda O'zbekiston davlat filarmoniyasida T.Jalilov rahbarligidagi ansamblda ishladi. 1940–1948 yillari Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida dirijor bo'lib ishladi. 1957 yildan 1983 yilgacha O'zbekiston Radioeshittirish qo'mitasi qoshidagi O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrida bosh dirijor va badiiy rahbar bo'lib ishladi. 1948–1953 yillarda Toshkent Davlat konservatoriyasida kompozitorlik bo'yicha B.B.Nadejdin sinfida tahsil oldi.

D.Zokirov ajoyib qo'shiq, romans, musiqali drama, opera, balet, simfonik va xalq cholg'u orkestri uchun bastalagan musiqiy asarlari bilan XX asr o'zbek musiqa madaniyatini boyitdi. U «Ey sabo», «Ko'rmadim», «Bo'lmasa», «Ayb etmangiz» qo'shiqlari, «So'nmas chiroqlar», «Dalada bayram», «Vatan chiroqlari», «Hayot mash'ali» musiqali dramalari, «Oynisa» baleti, «Zaynab va Omon» operasi, «Amirlikning yemirilishi», «Qutlug' qon», «Ulug'bek yulduzi», «Qaydasan Zulfiya» («Yor-yor») kinofilmlari uchun musiqalari, bolalar uchun «Oppoq o'tim», «Kungaboqar», «Sayohat-rohat», «Bog'da pishdi uzumlar», «Bolalar uchun vals», «Yangi yil qo'shig'i» va «Beqiyos diyor» kabi ko'plab musiqiy asarlarning muallifidir.

D.Zokirov «Yovvoyi Chorgoh», «Qaytarma», «Fig'on», «Sharob», «Farg'onacha», «Navo», «Savti Navo», «Ufori Navo», «Jazoir», «Garduni Segoh», «Tasnifi Dugoh», «Muxammasi Iroq», «Nasrulloiy», «Mirzadavlat», «Yolg'iz», «Rajabiy» kabi bir qator mumtoz asarlarni o'zbek xalq cholg'u orkestri uchun yuksak mahorat bilan moslashtirgan.



## **OLLONAZAR HASANOV (1924–1997)**



Xorazmning ko'zga ko'ringan ijrochilaridan biri, maqom cholg'uchilik an'alarining yirik bilimdoni, ko'pqirrali iste'dod sohibi O. Hasanov 1924 yilda Urgenchda tavallud topgan. 10 yoshligidan badiiy havaskorlik to'garaklarida hunar o'rganib, 14-15 yoshidan teatr va konsert tashkilotlarida sozandalik qilib, bilim va mahoratlarini oshirgan. U mayin ovozi bilan ashulalarni dardli ijro etgan. Sozandalikni esa aslida chang chalishdan boshlagan, keyinchalik tanbur, dutor va g'ijjak cholg'ularini puxta o'zlashtirgan. O'tkir zehni Ollonazar Matyoqub Xarrot, Razzoq Omonov kabi zabardast maqom ustozlari bilan yonma – yon ishlab mohir ijrochi darajasiga erishgan. G'ijjak ijrochiligi sohasida u zabardast namoyandalar qatoridan o'rin olgan. O. Hasanov ijrosidagi Muhammasi Ushshoq, Muhammasi Rost, Saqili Navo, Saqili Sulton, Peshravi Dugoh, Hafifi Segoh, Chorgoh kabi maqom kuylari yuksak san'at darajasidagi ilhom bilan sug'orilgan.

## **G'ULOMJON HOJIQULOV (1928)**



O'zbekiston xalq artisti, Andijon g'ijjak ijrochiligi san'atining yorqin namoyandasi, hofiz, zamonamizning xassos bastakorlaridan biri, ustoz-san'atkor, professor G'. Hojiqulov 1928 yilda Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Buloqboshi qishlog'ida oddiy dehqon oilasida tavallud topdi. U yoshligidan

musiqaga qiziqib tog'asidan avval doyra chalishni, keyinchalik esa g'ijjak chalishni o'zlashtirdi. 1942 yilda hukumat boshlig'i U.Yusupovning taklifi bilan uni Yangiyo'ldagi teatr jamoasiga ishga qabul qilindi. Bu yerda yosh G'ulomjon o'z zamonasining eng yirik san'atkorlari T.Jalilov, Yu. Rajabiy, J. Sultonov, K. Jabborov, M. Uzoqov, M. Murtazoev, S. Kalonovlarning tarbiyasini oldi. U 1949 yildan 2004 yilgacha Andijon musiqali drama teatrida jamoaning badiiy rahbari – ustoz sifatida ishladi. Hozirgi kunda Andijon davlat universitetida professor lavozimida faoliyat olib bormoqda. G'ijjakda uning ijrosidagi «Dugoh», «Azim daryo», «Kezarman», «Tamanno», «Surnay Chorgohi», «Ayrilmasin» kabi bir qator kuylar va «Girya», «Chorgoh», «Dugoh», «Yaxshiroq», «Tortadur» kabi ko'plab ashulalar yuksak mahorat bilan talqin etilgan. G'. Hojiqulov yuzga yaqin qo'shiq, kuy va ashulalar bastalagan. «Jafo qilma», «Kim ekan u», «Xirom etgil», «Qo'shiq aytaylik», «Asli yor bo'lmayo», «Keldi yoqimli bahor», «Gul uzatsam», «Lola sayli», «Diydor», «Vatan madhiyasi» kabilar shular jumlasidandir.

### **SAYFI JALIL (1932-2003)**



O'zbekiston xalq artisti, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, professor Sayfi Jalil 1932 yil 20 iyunda Samarqand shahrida zardo'z Hoji Komil Xolmurodov oilasida tug'ildi. Yoshligidan musiqaga qiziqishi bois, Respublika o'quvchilar saroyida tashkil etilgan havaskorlik musiqa to'garagiga qatnashib, g'ijjak chalishni o'rganadi. 1948 yilda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qishga kirib, 1949 yili g'ijjak sinfi va kompozitorlik bo'yicha ta'lim oladi. 1949 yili M.Qoru-Yoqubov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga g'ijjakchi bo'lib ishga kiradi. Mazkur jamoada ijrochilik bilan birga ijod qilib, o'zbek shoirlarining she'rlariga qo'shiq va ashulalar bastalay boshladi. Jumladan, «Ey yor xush kelibsiz», «Kelmasa-kelmasin netay», «Senga bir gap aytaman», «Pari ro'yim», «Kechalar yulduz sanab», «Vatanimga qo'shiqlar aytay», «Noz etma», «Kuyida», «Yor vasli», «O'zing san», «Benafu qilding meni», «Otash qalblar» kabi qo'shiq va ashulalari qo'shiqchilik san'atimizni boyitdi. S.Jalil bundan tashqari musiqali drama, komediya, opera, balet, kino musiqasi va boshqa murakkab shakl va janrlarda asarlar yaratdi. Uning «Toshkent manzaralari» simfonik syuitasi, skripka va orkestr uchun konserti, «Samarqandnoma» nomli simfoniyasi, yakkaxon va orkestr uchun «Majnun monologi» asari, «Qalam qoshligim», «To'lin oy», «Alisher Astrobodda» musiqali dramalari, «Zebuniso», «Malikai ayyor» operalari, «Muhabbatnoma» baleti, «Ikki dil dostoni» radiospektakli, «Qora ko'zim», «O, muhabbat» telepostanovkalari «Azizaxon» telefilm, «Zulmatni



tark etib», «Ota vasiyati» badiiy filmlariga bastalagan musiqalari shular jumlasidandir.

### **QAHRAMON KOMILOV (1948)**



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, mohir g'ijjakchi, kompozitor Q. Komilov 1948 yilning 21 martida Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tug'ildi. Musiqaga qiziqib 1962yili Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining g'ijjak sinfiga o'qishga kirdi. 1966 yili o'qishni bitirib O'zbekiston radiosi huzuridagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida g'ijjakchi bo'lib ishlay boshladi. 1970 yilda Toshkent davlat konservatoriyasiga kompozitorlik ixtisosligi bo'yicha o'qishga kirdi. Bu iste'dod sohibi o'z ustida ishlab, mustaqil ravishda, turli janr va shakllarda juda ko'p jozibali, milliy ruh bilan sug'orilgan, rang-barang original musiqiy asarlar yaratib, musiqa jamoatchiligi hurmat- e'tiboriga sazovor bo'ldi. Kompozitor to'rt yuzdan ziyod turli mavzularda asarlar yaratdi.«Toshkent haqida poema»si, «Mening muhabbatim»,«Simfoniya», «Dalvarzintepa» syuitalari, «Ishonadi ona yuragi», «XX asr nidosi» balladasi, xor uchun «Yurtim»,«Ozbekiston qo'shig'i», «Ozod yurt» asarlari, «Diyonatga xiyonat», «Otabek va Kumushbibi», «Oy onam, qaynonam» musiqali dramalari, «Oq yo'l tilang onajon», «Ko'ngil», «Guli ra'no», «Gulchi bog'bon», «Tinchlik uchun», «Turnalar», «Ohu»,«Qizlarjon» qo'shiqlari bularning ayrimlaridir.

### **O'LMAS RASULOV (1951)**



O'zbekiston xalq artisti, Buxoro g'ijjak ijrochiligi san'atining yorqin namoyandasi, xonanda va bastakor O'. Rasulov 1951 yilda Surxondaryo viloyatining Denov tumanida oddiy dehqon oilasida tugildi. 1958-1967 yillarda Buxoro shahridagi maxsus 24-maktab internatida ta'lim oldi. 1967yili Buxoro Davlat musiqa bilim yurtiga o'qishga qabul qilindi. 1971-1976 yillarda esa Toshkent Davlat konservatoriyasida tahsil oldi. 1977yilda Buxoro shahar ma'rifatchilar uyida «Sayqal»maqomchilar ansamblini tuzishda faol ishtirok etdi. 1987 yil konservatoriyaga ishga taklif etildi. Talabalarga saboq berish bilan birga «Zarafshon»ashula va raqs ansamblida ham sozanda ham bastakor sifatida barakali ijod qildi.O'. Rasulov O'zbekiston Teleradiokompaniyasi musiqiy yozuvlar «Oltin xazina»siga ellikka yaqin kuy va qo'shiqlar yozdirdi. Uning ijrosidagi «Eshvoy», «Guluzorim», «Buxoro To'liqini», «Ajam taronalari», «Muhammasi Buzruk», «Sarahbori Iroq», «Tortadur» kabi bir qator kuylar yuksak mahorat bilan ijro etilgan. «Visol», «Kamon ufori», «Oypalak», «Darmoni yo'q», «Kulgumizdan yangrasin olam», «Devona bo'lmish», «Javoniy II», «Parvona» kabi ko'plab kuy va qoshiqlar esa bastakorlik ijodi namunalaridandir.

#### **ABDUHOSHIM ISMOILOV (1952)**



O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, mohir g'ijjakchi va bastakor A. Ismoilov 1952 yilning 9 iyunida Farg'ona viloyati Quva tumanida dehqon oilasida tug'ilgan. Bolaligidan musiqaga qiziqadi va havaskorlik to'garagiga qatnaydi. 1967 yili Farg'ona musiqa bilim yurtiga, 1975 yilda esa Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga kiradi.1980 yilda o'qishni tamomlab Yu. Rajabiy nomidagi maqom ansamblida ijodiy faoliyatini boshlaydi. 1983 yilda o'tkazilgan Respublika maqom ijrochilarining tanlovida birinchi o'rin sovrindori bo'ladi. A. Ismoilov ham mohir g'ijjakchi ham iste'dodli bastakordir. U yaratgan musiqiy asarlarda an'anaviy uslub va zamonaviy musiqa vositalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'ziga xos ohang va usullar kashf etgan holda ta'sirchan. Shu sababli muxlislar tomonidan har bir asar ishtiyoq va muntazirlik bilan kutib olinmoqda. Masalan: «O'zbekiston», «Toshkentim», «Bo'lmas», «Noz», «Yulduzim», «Majnuntol», «Tog'lik qiz», «Sening kulishlaring», «Uchrashuv», «Netay» kabi qo'shiq, ashula va yallalari hamda «Holim so'rma», «Gullola», «Tong», «Hayoli qiz», «Dil nolasi», «To'yona», «Qalb sadosi» kabi bir qator cholg'u va raqs kuylari musiqa muxlislarining dilidan joy olgan. Yu. Rajabiy nomidagi «Maqom ansambli» badiiy rahbari A. Ismoilov ko'p qirrali faoliyati bilan o'zbek musiqa san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shib, barakali ijod qilmoqda.



## AHMADJON DADAYEV (1957)



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, mashhur g'ijjakchi, xonanda va bastakor A.Dadayev 1957 yil 29 yanvarda Toshkent viloyatining Parkent tumani Navdak qishlog'ida oddiy ishchi oilasida tug'ildi. 1967 yili Krasnogorsk (hozirgi Qiziltog') shaharchasidagi musiqa maktabiga g'ijjak cholg'usi bo'yicha o'qishga kirdi. 1972-1976 yillarda Hamza nomidagi Toshkent Davlat musiqa bilim yurtida saboq oldi. 1976-1981 yillar davomida esa Toshkent Davlat konservatoriyasining «Sharq musiqasi» kafedrasida bilim oldi. 1979-2004 yillar Yu. Rajabiy nomidagi maqom ansamblida yetakchi sozanda bo'lib ishladi. U o'zining bastakorlik faoliyati davomida yuzdan ziyod kuy va qo'shiqlar yaratdi. «Mehribonimga», «Bahor», «Dillar uchrashuvi», «Gulzorim go'zal», «Jondan shirin», «Onam», «Mehnat bilan», «Rubobim tori ikkidur», «Vafo qilarmisan bahorim», «Dutorim», «Seni kutgayman» kabilar shular jumlasidandir.

## O'TKIR QODIROV (1964)



Yunus Rajabiy nomidagi xalqaro maqom ijrochilari tanlovining oliy mukofot – «Gran-pri» sovrindori, mohir g'ijjakchi, ustoz O'. Qodirov 1964 yil 29 iyunda Toshkent shahrida cholg'u soz yasovchi mashhur usta Soqijon Qodirov oilasida tug'ildi. Uning musiqaga qiziqishiga, avvalo oilaviy muhit sabab bo'ldi. 1974-1979 yillar mobaynida musiqa maktabida ta'lim oldi. 1979-1983 yillari H.H. Niyoziy nomidagi Toshkent Davlat musiqa bilim yurtida g'ijjak cholg'usining nozik sirlarini o'rgandi. 1983 yili Toshkent Davlat konservatoriyasiga o'qishga kirib, mumtoz musiqa merosimiz gultoji bo'lmish maqom ijrochiligini puxta o'zlashtirdi. 1993 yildan boshlab esa konservatoriyaning «An'anaviy ijrochilik» kafedrasida talabalarga g'ijjak cholg'usi bo'yicha saboq bera boshladi. Uning ijrosidagi «Tasnifi

Dugoh», «Garduni Dugoh», «Surnay Dashnabodi», «Ra'nolanmasun», «Yakka bu Farg'onada», «Sallamno», «Xumor» kabi bir qator kuylar O'zbekiston Teleradiokompaniyasining «Oltin xazina»sidan munosib joy olgan. Bugungi kunda O'.Qodirov o'qituvchilik bilan bir qatorda taniqli «Sato» vocal-cholg'u guruhi va «Registon» cholg'u guruhlarida yetakchi sozanda sifatida barakali ijod qilib kelmoqda.

#### **SALOHIDDIN AZIZBOYEV (1964)**



Taniqli xonanda va mohir g'ijjkchi, Yu. Rajabiy nomidagi xalqaro maqom ijrochilari tanlovi sovrindori, O'zbekiston Davlat konservatoriyasi dotsenti S.Azizboyev 1964 yilda Tojikiston respublikasining O'ratepa shahrida mashhur san'atkor Tojikiston xalq hofizi Sa'dulla Azizboyev oilasida tug'ildi. Yoshligidan musiqaga mehr qo'yib avval otasidan rubob chalishni o'rgandi. 1979 yili Xo'janddagi Sodirxon Hofiz nomli musiqqa bilim yurtiga g'ijjak sinfi bo'yicha o'qishga kirdi. 1983 yili Toshkent Davlat konservatoriyasiga o'qishga kirib g'ijjakdan A.Ismoilov va O'. Rasulov, xonandalikdan esa F. Mamadaliyev sinflarida ijrochilikning nozik sirlarini puxta o'zlashtirdi. Uning ijrosidagi yigirmadan ziyod mumtoz ashula,kuylar, xalq va bastakorlar ijodiga mansub talaygina musiqiy asarlar O'zbekiston Teleradiokompaniyasi musiqiy yozuvlar «Oltin xazina»siga qabul qilingan. 1989 yildan boshlab to bugungi kungacha konservatoriyada yoshlarga bilim berish bilan bir qatorda an'anaviy ijrochilik uslubida va milliy estrada yo'nalishlarida barakali ijod qilib, o'zbek musiqqa san'ati rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008.
2. Ю.Ражабий. «Ўзбек халқ мусиқаси». I-V жилдлар. Т., 1955-1959.
3. Ю.Ражабий. «Шашмақом». I-VI жилдлар. Т., 1965-1975.
4. Ф.М.Кароматов. «Ўзбекская инструментальная музыка». Т., 1972.
5. Ф.М.Кароматов. «Ўзбек халқ мусиқа мероси». Т., 1978, 1-китоб.
6. А.Петросянц. «Инструментоведение».
7. Р.Фелициант, С.Алиев. «Ғижжак дарслиги». Т., 1961.
8. М.Тошмуҳаммедов. «Ғижжак наволари». Т., 1983.
9. М.Тошмуҳаммедов. «Ғижжак дарслиги» Т., 1995.
10. М.Тошмуҳ. «Анъанавий ижрони ўзлаштириш». Т., 1999.
11. Қ.Назиров. «Абдуҳошим Исмоилов». Т., 2003.
12. S.Azizboyev. «An'anaviy g'ijjak ijrochiligi». Т., 2005.
13. Р.Қосимов. «Анъанавий ижрочилик». Т., 2007.
14. Романовская. «Статьи и доклады. Записи музыкального фольклора». Т., 1957.
15. И.А.Акбаров. «Мусиқа луғати». Т., 1987.
16. А.Фитрат. «Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи». Т., 1993.
17. О.Матёқубов. «Мақомот». Т., 2004.
18. А.Григорян. Гаммы и арпеджио. М., 1980.
19. Қ.Раҳимов. «Мусиқанинг элементар назарияси». Т., 2007.
20. А.Жабборов. «Ўзбекистон бастакорлари ва мусиқашунослари». Т., 2004.
21. А.Эргашев. «Азиз сиймо». Т., 2014.

## MUNDARIJA

<b>MUALLIFDAN.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. MILLIY CHOLG‘U IJROCHILIGIMIZ TARIXIGA BIR NAZAR.....</b>	<b>6</b>
Bob yuzasidan savol va topshiriqlar.....	8
<b>II BOB. YUNUSQORI YUSUPOVNING HAYOTI VA IJODIY YO‘LI</b>	
II.1 Yunusqori Yusupovning hayot va ijod yo‘li .....	9
II.2 Yunusqori Yusupov – mohir sozanda .....	13
II.3 Yunusqori Yusupov – mohir xonanda .....	14
II.4 Yu.Yusupov – yetuk bastakor .....	43
II.5 Yu. Yusupov – yetuk san`atkorlar e`tirofida .....	48
Bob yuzasidan savol va topshiriqlar .....	51
<b>III BOB. YU.YUSUPOV IJRO USLUBINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI</b>	
III 1. Ustozlar uslubini tadqiq etish samaralari .....	53
III 2. «Uslub» tushunchasining tavsifi .....	55
III.3. Yu.Yusupovning ijro uslubi .....	56
Bob yuzasidan savol va topshiriqlar .....	60
<b>IV BOB O‘QUV-USLUBIY TAVSIYALAR .....</b>	<b>61</b>
<b>V BOB G‘IJJAK IJROCHILIGIDA QO‘LLANILADIGAN BEZAKLAR .....</b>	<b>64</b>
<b>ILOVA .....</b>	<b>67</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>95</b>

**NABIJON QODIROV**

# **G‘IJJAK IJROCHILIGIDA MAHALLIY USLUBLAR**

*(Yunusqori Yusupov)*

*Oliy ta‘lim muassasalari uchun  
o‘quv qo‘llanma*

Muharrir *B.Ashurov*  
Texnik muharrir *N.Ismoilova*  
Kompyuterda tayyorlovchi *B.Ashurov*

Bosishga ruxsat etildi 26.09.2016. Bichimi 60 x 84 1/8.  
Times New Roman garniturasida. Shartli bosma taboq 12,0. Adadi 350 nusxa.

“Building Print” MCHJ da chop etildi.  
Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 40.